

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 23-may
№21 (3135)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



IRODA MAYDONI

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI NORASMIY SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Siz, azizlar bilan asrlar davomida Sharq va G'arb o'rtasida mustahkam ko'prik bo'lib kelayotgan go'zal Budapesht shahrida uchrashib turganimizdan behad mamnunman.

Bugungi yig'ilishimizga yuksak darajada mezbonlik qilayotgan hurmatli Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban Janobi Oliylari sha'niga aytilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Tashkilotimizda muvaffaqiyatli raislik qilayotgan hurmatli Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Nurgojoyevich Japarov Janobi Oliylariga yangi yutuqlar tilayman.

Muhtaram hamkasblar!

Bugungi sammitimiz shiddat bilan o'zgarayotgan global vaziyat va oldindan aytib bo'lmaydigan murakkab jarayonlar sharoitida o'tmoqda. Geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o'zgarishi oqibatlarining kuchayishi barchamiz uchun katta sinov bo'lmoqda.

Shu sababli dolzarb muammolar yechimi bo'yicha davlatlarimizning umumiy yondashuv va pozitsiyalarini kuchaytirish har qachongidan ham muhimdir.

Ta'kidlash lozimki, biz eng og'riqli muammolarga xalqaro huquq me'yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi asosida yechim topish zarur, deb hisoblaymiz.

Ukraina atrofidagi vaziyatni diplomatiya va muzokaralar yo'li bilan hal etishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Hurmatli Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan Janobi Oliylarining bu boradagi munosib hissasini alohida e'tirof etmoqchiman.

G'azoda sulh bitimining buzilishi va harbiy harakatlarning qaytadan boshlanishi barchamizni chuqur tashvishga solmoqda. Toki "Ikki xalq uchun – ikki davlat" tamoyili ro'yobga chiqmas ekan, Falastin – Isroil nizosining adolatli yechimini topish mumkin emas.

Global va mintaqaviy xavfsizlik haqida so'z yuritar ekanmiz, Afg'onistondagi murakkab vaziyatni inobatga olishimiz va unga birgalikda yechim topishimiz lozim. Afg'oniston bo'yicha qo'shma

bayonot qabul qilinayotgani tuzilmamizning bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelayotganidan dalolat beradi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Biz qisqa vaqt mobaynida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amaliy hamkorlik bo'yicha samarali natijalarga erishmoqdamiz. Yaqinda iqtisodiy tahlil markazlarimizning Toshkentda bo'lib o'tgan anjumanida aloqalarimizni kengaytirish uchun ulkan salohiyat borligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Kun tartibidan kelib chiqib, o'z takliflarimni bildirmoqchiman.

Xabaringiz bor, o'tgan yili "Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik hamda qardoshlik to'g'risida"gi bitimni ishlab chiqish taklifini ilgari surgan edik.

Bugungi kunda ushbu hujjatning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Hech shubhasiz, mazkur bitim xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko'p qirrali hamkorligimizning uzoq muddatli huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu hujjatni Boku sammitida imzolashni taklif qilaman.

Oldimizda aniq vazifa turibdi – yaqin yillarda o'zaro savdo ulushini keskin ko'paytirish lozim. Shu maqsadda "Turk-treyd" onlayn platformasini yaratish va Savdoni oshirish amaliy dasturini qabul qilish tashabbuslarini ilgari suramiz.

Transkaspiy xalqaro yo'lagi orqali yuk tashish hajmini oshirish va bojxona-chegara tartiblarini soddalashtirish uchun "yagona darcha" hamda "yashil koridorlar" tizimlarini tezroq yo'lga qo'yishga chaqiraman. Ushbu yo'nalishdagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida noyabr oyida Toshkentda Turkiy davlatlarning Xalqaro multimodal transport va logistika forumini o'tkazishni rejalashtirganmiz.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, **Turkiy investitsiya jamg'armasining faoliyati sarmoyalar oqimining faollashuviga turtki berishi shubhasiz.**

Biz innovatsion loyihalarni rag'batlantirish uchun qo'shma venchur kompaniyasini tashkil etish zarur, deb hisoblaymiz.

Bu borada mamlakatlarimizning investitsiya imkoniyatlarini to'liq aks ettirgan "Yagona investitsiya portali"ni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir masala. Sanoat kooperatsiyasi sohasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish vaqti keldi. Bu borada kimyo, energetika, tog'-kon, yengil sanoat, farmatsevtika, charm-poyabzal, oziq-ovqat va qurilish sohalarida salmoqli ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo'yicha Sanoat kooperatsiyasi dasturini ishlab chiqishni taklif etaman.

Yaqinda Samarqand shahrida o'tkazilgan Xalqaro iqlim forumida "yashil" taraqqiyot sohasidagi mintaqaviy va global hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha muhim takliflar bildirildi.

Hurmatli Viktor Orban Janobi Oliylarining tashabbusi bilan Budapeshtda Tashkilotimizning Qurg'oqchilikning oldini olish instituti o'z ishini boshlaganini ham mamnuniyat bilan e'tirof etamiz. Mazkur institut faoliyatiga ko'maklashish va maqsadli loyihalarga kengroq jalb etish uchun "Qurg'oqchilik va ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishni taklif etaman. Shu o'rinda yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan, barchamizning faxr-iftixorimiz bo'lgan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish va dunyoga tarannum etish biz uchun sharaflilik va mas'uliyatli vazifadir. Shu bois ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlod uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish niyatida "Turkiy dunyo xartiyasi"da "Ilmdan o'zga najot yo'q" degan yuksak axloqiy g'oyani muhrlab qo'ydik.

Ushbu ezgu maqsad yo'lida Toshkentda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti ochilmoqda. Mazkur o'quv dargohida turkiy davlatlarning yetuk professor va olimlari faoliyat olib borishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa yosh avlodning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, ularning zamonaviy bilimlarni egallashiga munosib hissa qo'shadi, deb ishonaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

O'tgan yili O'zbekistonning Turkiy madaniyat va meros jamg'armasiga rasman a'zo bo'lib kirish haqidagi qarorini e'lon qilgan edik. Ushbu tuzilma doirasida umumturkiy madaniy merosimizni asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish oldimizda turgan muhim vazifadir. Bu sohadagi muloqotni kengaytirish maqsadida Jamg'arma kengashining navbatdagi yig'ilishini mamlakatimizda o'tkazishni taklif qilaman.

Davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY alohida o'ringa ega. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarimizni yangi bosqichga olib chiqish va TURKSOYning nufuzini yanada oshirish uchun uning faoliyati va tuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblayman. Shu maqsadda tashqi ishlar va madaniyat vazirlarimizga Boku sammitiga qadar tegishli takliflar ishlab chiqish vazifasini topshirsak, to'g'ri bo'ladi, deb o'ylayman.

Muhtaram hamkasblar!

Bundan uch yil oldin turkiy dunyo birligiga qo'shgan ulkan hissasi uchun buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etgan edik.

Bugun ushbu nufuzli mukofot bilan atoqli turk olimi, bioximik, Nobel mukofoti sovrindori, janob Aziz Sanjar taqdirlanayotganidan behad mamnunmiz. Bu mashhur olim O'zbekiston Milliy universitetining faxriy doktori ekanidan biz albatta g'ururlanamiz.

Aminmanki, bugungi taqdirlash marosimi turkiy dunyo olimlarini, jumladan ilm-fan yo'liga dadil qadam qo'yayotgan yoshlarimizni yangi-yangi marralar sari rag'batlantiradi.

Aziz do'stlar!

Bugungi Budapesht sammitida qabul qilingan muhim qaror va hujjatlar qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi tinchlik, hamjihatlik va barqaror taraqqiyotni mustahkamlash yo'lida yangi sahifa ochishiga ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

TO'RT URINISHDA TO'RT YUQORI NATIJA

2021-yilning may oyi. "G'urumsaroy" dala-o'quv maydonida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Merganlar tayyorlash markazi ish boshladi. Markazning ishga tushirilishi Qurolli Kuchlar tizimida xizmat burchini o'tayotgan harbiy xizmatchilarning mahalliy miqyosda ham, xalqaro miqyosda ham kasbiy malakasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Buni ishga tushirilganiga hali ko'p bo'lmagan markazning erishayotgan yutuqlarida ko'rish mumkin.



Turkiyaning Isparta shahridagi "Komando" tog'-o'quv mashqlar markazida o'tkazilgan musobaqada Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilaridan iborat merganlar jamoasi ketma-ket ikkinchi yil g'oliblikni qo'lga kiritgani fikrimizning yaqqol misolidir. Aslida O'zbekiston sharafigi himoya qilgan yigitlar merganlikning milliy mentalitetga aloqadorligini, shu bilan birga chidamlilik va sabr-toqat orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini raqiblariga yana bir marta amalda isbotlab berdi.

Ma'lumki jamoamiz 2022-yilda mazkur musobaqadagi debyutini muvaffaqiyatli boshlab, ilk urinishdayoq 2-o'rinni qo'lga kiritgan. 2023-yilda ham xuddi shu natija takrorlandi. Shundan so'ng ko'plab xalqaro xorijlik mutaxassislar yigitlarimizning imkoniyatiga yuqori baho bera boshladi. O'tgan yili ham Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi g'oliblik uchun kurash olib bordi va buni muvaffaqiyatli tarzda uddaladi.

Bu yil Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilaridan iborat merganlar jamoasi

Ispartaga chempionlik unvonini himoya etish uchun tashrif buyurdi. Jamoa boshlig'i mayor Shahboz Eshonqulovning ta'kidlashicha, bahslar boshlanmasidan oldin raqiblar 2024-yilgi g'olib jamoaning kelgan, kelmaganligi bilan qiziqqan. Chunki "Eng ilg'or merganlar jamoasi" musobaqasining 50 ga yaqin jamoasidan qaysi biri g'oliblikni qo'lga kiritishni xohlamaydi deysiz?

Ishtirokchilar guruhlariga bo'linib, bir-biridan murakkab 12 ta shart bo'yicha bahslarga kirishdi. Musobaqa qatnashchilari yuqori burchak ostida o'q otish, gazniqob taqqan holda jangovar o'q otish, noaniq masofalarga noqulay istehkomdan, turli to'siqlar ortidan, havodagi vertolyotdan o'q otish, orolni himoya qilish va qayiqdan jangovar o'q otish, nishonga sezdirmay yaqinlashib, 5 km masofadan yuk va qurol bilan yugurib kelib, sovuq stvoldan o'q otish, tunda noma'lum masofalarga o'q otish va syurpriz kabi bir-biridan murakkab shartlarini bajardi.

"Eng ilg'or merganlar jamoasi" musobaqasining 2025-yilgi g'olibini aniqlash uchun bahsda O'zbekiston, Turkiya, Pokiston, Qatar, Ozarbayjon,

Italiya, Birlashgan Arab Amirliklari singari o'ndan ortiq davlat, shuningdek kuzatuvchi maqomida qatnashgan Turkmaniston, Qozog'iston, Buyuk Britaniya va Quvayt mamlakatlari harbiy xizmatchilari o'zaro bellashdi. Deyarli 10 kun davom etgan bellashuvlarda 48 ta jamoa ishtirok etdi. So'nggi shartlarga kelib, oltin medallar uchun kurash olib boruvchi uchta jamoaning nomi ma'lum bo'ldi. Bular O'zbekiston, Turkiya va Italiya jamoalari edi.

Isparta shahri – eng baland nuqtasi 1 049 metrni tashkil etuvchi Davraz tizmasiga kiruvchi Num yassi tog'lari va so'lim Egirdir ko'li bilan mashhur. Musobaqa aynan Num yassi tog'lari hamda Egirdir ko'li atrofida bo'lib o'tdi. Natija hammaga ma'lum. Barcha raqiblar ortda qoldirildi. Ispartada davlatimiz madhiyasi yangrab, bayrog'imiz eng yuqoriga ko'tarildi. O'zbekiston sharafigi himoya qilgan harbiy merganlarimiz yurtimizga musobaqaning ikki karra g'olibi sifatida qaytdi.

Yakshanba kuni Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportda "Eng ilg'or merganlar jamoasi" qahramonlari tantanali kutib olindi.

Kutib olish marosimida III darajali serjant Sarvarjon Qaramanovning oilasi Jizzaxdan, kapitan Azizbek Hamidovning oilasi Chirchiqdan yetib keldi. Farzandlari erishgan yutuqdan ularning chehrasidagi quvonchni so'z bilan ifodalash qiyin. Forishlik Anvar Abdiyev va Dilfuza Abdiyeva atrofdagilarga g'urur bilan "Bu bizning to'ng'ich o'g'limiz!" degandek qarab-qarab qo'yadi. Abduvali aka Kambarov va Dilorom aya Karimova nevaralari 3 yoshli Safiyaning e'tiborini Azizbekning ko'ksidagi oltin medalga qaratmoqchi bo'ldi. Sog'inchdan otasining bo'ynini mahkam quchoqlab olgan Safiyaning bolalarcha beg'ubor qiliqlari esa hammaning nigohini o'ziga tortdi.

Qisqa qilib aytganda, g'olib jamoamiz safidagi har bir yigit Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi mohir sarkardalarimizning munosib izdoshi ekanini amalda isbotladi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

Mardi maydonlar

Qo'lingiz singanmi? Unda siz men aytayotgan dardni his qilmagan ekansiz. Gapimdan xafa bo'lmang! Aytgancha, mening qo'lim naq tirsakdan singan. Bolalikda jo'ralar bilan yong'oq daraxtining shoxiga osilib, arg'imchoq uchaman, deb tushib ketganman. Ishonasizmi, shu-shu tepalikka chiqsam, yuragim tovonimga tushib ketgudek bo'laveradi. Vujudimni dahshatli vahima bosadi. Boshim aylanib, qadam tashlolmay qolaman. O'sha qo'rquv hali-hamon o'zim bilan, bitta tanada jon saqlab kelyapti.

Aytgancha, o'tgan hafta desantchilar bilan olib borilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etdim. Qaydam, men ular bajargan vazifalarni, hatto eng osonini ham uddalay olmayman. O'zimni bilaman-ku. Xullas, yigitlarni shunchaki kuzatib o'tirdim. Lekin zavqli bo'ldi. Chunki ular osondan murakkablashgan tamoyil asosida topshiriqlarni ado etar ekan.

Nazarimda, sizni qiziqtirib qo'ydim, a? Bo'lmasa, bugun ana shu jarayonlar haqida so'zlab beray. Vaqtingiz bo'lsa, albatta.

Erta tongdan Toshkent harbiy okrugi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasiga yetib bordik. Harbiy xizmatchilar yer tayyorgarligi mashqlarini olib borayotgan ekan. O'ndan ortiq o'quv joyida guruhlar yo'riqchilar nazoratida berilgan vazifalarni bajarmoqda. Bir tomonda parashyutni taxlash ishlari bo'yicha bilimlar mustahkamlanyapti, boshqa bir guruhning harbiy xizmatchilari esa yerga qo'nish, sakrash kabi mashqlarni navbatma-navbat ado etyapti.

– Ko'kda qalqon, yerda posbon deyishadi desantchilarni, – deydi podpolkovnik Xayrulla Akromov. – Haqiqatan ham shunday. Chunki bu bo'linmada xizmat olib borayotgan o'g'lonlar nafaqat yerdagi berilgan vazifalarni tezkor bajaradi, balki samo uzra parvoz etib, berilgan topshiriqlarni a'lo darajada uddalaydi. Aslida maqsadimiz ham Vatan himoyachilarining ayni ko'nikmalarini yanada mustahkamlashdan iborat. Bugungi mashg'ulotlar o'quv yili rejasiga ko'ra, olib borilmoqda. Unga Mudofaa vazirligining desant bo'linmalari jalb etilgan.

Darvoqe, bu yerdagi jarayonlarda ishtirok etayotgan desantchilar mamlakatimizning turli hududlarida xizmat qiladi. Bugun ular bir joyda jam bo'lib, vazifalarni bajaryapti. Biroq joy notanish. Bu esa azamatlarning yanada sinchkovlik bilan harakat qilishlari kerakligini anglatadi.

– Kishi doimiy bir joyda harakat olib borsa, u o'sha hududni to'liq o'rganib oladi, – deydi podpolkovnik Zohid Avazov. – Qaysidir ma'noda bu yaxshi. Lekin u notanish hududda avvalgi natijalarini ko'rsata olmasligi mumkin. Chunki o'sha hududni o'rganish kerak, ma'lumotlarni



PARASHYUT BILAN SAKRASH



to'plash lozim. Bu esa ko'p vaqt yo'qotish degani. Biz mana shu jihatlarni inobatga olib, harbiy xizmatchilarni mutlaqo notanish joylarda ham o'zlarini yo'qotib qo'ymagan holda topshiriqlarni bajarishga o'rgatyapmiz. Ko'nikmalarini oshirishga ahamiyat qaratyapmiz. – Yerda olingan bilim, ko'kda o'z natijasini beradi, – deydi leytenant Behruz Yo'ldoshev. – Shu sabab ham biz yerdagi tayyorgarlik mashqlarini bosqichma-bosqich olib boramiz. Bunda har bir jihat e'tiborga olinadi. Chunki aynan shu joydan samodagi vazifalarning muvaffaqiyati boshlanadi. Desantchi esa buni yaxshi biladi va shunga monand harakat qiladi. Ochig'i, biroz menda hayajon bor. Sababi bugun parashyut bilan ilk bor amaliy sakrayman. Ustozlardan eshitganman, bu ham zavqli va biroz xavotirli kechar ekan. Lekin shu kunga qadar qo'l urgan ishimning uddasidan chiqqanman. Bu gal ham ko'zlangan marrani, ya'ni sakrashni bekam-u ko'st uddalayman.

Parashyut bilan amaliy sakrash jarayonlarigacha yigitlar muhim va qator tayyorgarliklardan o'tadi. Bunda hech bir jihat esdan chiqmaydi. Mutaxassislar mayda detallargacha e'tiborsiz qoldirmaydi. Chunki desantchilarning muvaffaqiyatli sakrashlari ham yerda olib borilgan o'quvlarga bog'liq, albatta. Umuman, havo kengliklarida parvoz etishda takrorlanmas hissiyot insonni qamrab oladi. Qo'rquvning iskanjasidan



VA UCHISH ZAVQI



faqatgina axloqiy-ruhiy sifatlari mustahkam, o'ziga ishongan va mashqlarda har tomonlama toblangan kishigina tezda chiqib keta oladi, berilgan vazifani bajarishga qodir bo'ladi.

Kun ochiq. Quyosh tog'lar ortidan sekin bosh ko'taryapti. Tonggi esib turgan mayin shabada, maysalarni erkalab, uyg'otmoqda. Bunda qalbga ham huzur va iliqlik kirib keladi. Vatan ishqida yongan va hamisha ana shu yo'lda sobit turib, oliy maqsadlari sari dadil odimlayotgan yurt o'g'lonlari mashq va mashg'ulotlarda kasbiy tayyorgarliklarini oshiradi. Yangi bilim va usullarni o'rganadi. Muhimi, qo'llanilayotgan uslublar bir-birini sira ham takrorlamaydi. Ana shuning uchun ham desantchilar ilg'or va tezkor. Ular hamisha va hamma vaqt berilgan topshiriqlarni kutilganidan-da a'lo darajada ado etish imkoniga ega bo'linma sanaladi.

Desantchilarga uzoqdan nazar tashlayman: hammaning ko'zida qat'iyat, ishonchni ko'raman. Ular shunchaki, parashyut bilan sakramaydi, balki ular shu orqali jasoratini, azm-u shijoatini amalda ko'rsatadi.

Yana bir gap: bugun desantchilar orasida 200, 1 000, 3 000, 5 000 va hatto undan ham ziyod amaliy sakragan tajribali harbiylar bilan bir qatorda havo kengliklarini zabt etishni maqsad qilgan Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining kursantlari ham bor.

“Parashyut kiyish chizig'i”, “Guruh komandiri tekshiruv chizig'i”, “Vzvod komandiri tekshiruv chizig'i”... Bu ketma-ketlik harbiy xizmatchilarni havo sarhadlari tomon tobora yaqinlashtirib bormoqda. Xullas, jarayonlar boshlandi. Desantchilar guruhlarga bo'lingan holda “D-6”, “Berkut-2”, “Malva aksioma” kabi parashyutlardan navbatma-navbat belgilangan hududga muayyan qo'shimcha yuklar bilan sakrash jangovar vazifasini bajaradi. Uchishga tayyor desantchilar Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlariga qarashli Mi-8 harbiy vertolyoti bortidan joy oldi.

Albatta, havo-desant bo'linmalari milliy armiyamizning suyanchi, tayanchi va mamlakatimizning eng ishonchli qalqonidir. Chapdast, mard va jasur o'g'lonlar har vaqt o'zlashtirgan yangi bilimlarini, ko'nikmalarini mana shunday o'quvlarda mustahkamlaydi.

Havo transporti dastlab 600 metrga ko'tarildi. So'ngra birinchi guruh vertolyotdan birma-bir sakrashni boshladi. Keyin 1 200 metr balandlik zabt etildi. Navbat 3 000 metrga yetgach, keyingi guruhning parashyutlari ochilgani ko'rindi. Ular juda mayda va shu bilan birga yerga qarab tez uchardi. Bulutlar orasidan shaxt bilan borayotgan vertolyotdan sakrashni boshlagan harbiylar ko'p o'tmay, bir chiziqqa turnalardek saf tortib oldi. Oraliq masofani saqlab, belgilangan hududga qarab uchib kelayotgan azamatlarning ham shijoati, ham kasbiy tayyorgarligi va eng muhimi o'ziga bo'lgan ishonchi sinovdan o'tyapti.

Yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, unga hamisha va hamma vaqt qalqon bo'lish haqiqiy mard va jasur, sadoqatli, sodiq o'g'lonlarning burchi, aslida. Ana shu mas'uliyat, fidoyilik qalbida jo'sh urgan azamatlar bugun navbatdagi sakrashlarni ham muvaffaqiyatli yakunladi.

Darvoqe, desantchilar harakatlarini kuzatar ekanman, ko'ksimdagi o'sha qo'rquv tipirchilardi. Ko'zlarimni tez-tez yumib-ochib o'tirdim. Xullas, u meni tinch qo'yamaydiganga o'xshaydi. Bo'lmasa, boshqalarning harakatidan ham vahimaga tusharmidim?! Ishqilib, nimadandir bir qo'rqsangiz, yana avvalgi holingizga qaytish oson bo'lmas ekan-da. Demak, kamina desant bo'linmalarida xizmat qilishga loyiq emas. Chunki ularning eng ashaddiy dushmani, avvalo,

o'zining ichidagi qo'rquvi. Men esa o'z-o'zimni yenga olmay yuribman.

Aytgancha, siz-chi? Siz u bu joyda yuragingizni oldirmaganmisiz? Agar shunday bo'lsa, unda o'sha mashhur bo'linma – desantchilar safida xizmat qilish haqida bir o'ylab ko'rmadingizmi? Agarda buni keyinga surib kelayotgan bo'lsangiz, unda siz ham qo'rquv va o'z-o'zingizni yenga olmaganlardansiz. Ha, xuddi mendek.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Muallif suratga olgan



Mahorat

MASHG'ULOTLARGA SINGDIRILAYOTGAN



YANGICHA YONDASHUVLAR

Jangda muvaffaqiyatni qo'shin soni emas, uning tezkor harakatlanishi, jangovar tayyorgarligi va shaxsiy tarkibning mahorati belgilaydi. Bunga tarix guvoh. Buyuk sarkardalarning faoliyatida ham kuzatilgan bunday jihatlar asrlar o'tishi bilan o'z qiymatini yo'qotmay kelyapti. Ular zamon talabidan kelib chiqqan holda, taktik uslublar bilan yanada boyitib borilmoqda. Bugungi kunda esa zamonaviy taktik uslublar bo'linmalar miqyosidagi mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazilib, amaliy ko'nikmalar orqali ko'zlangan maqsadlarga erishilishi ta'minlanmoqda.



Bu galgi xizmat safarimiz davomida Markaziy harbiy okrugga qarashli "Sazagan" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan batalyon taktik-o'quvi misolida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar shaylikning qay darajada ekanini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik. Vatan himoyachilari tong g'ira-shirasida yangragan yig'in signali bilan oyoqqa qalqidi. Sanoqli daqiqalar ichida batalyon shaxsiy tarkibi o'ziga tegishli qurollar va jangovar harbiy texnikalar bilan "Sazagan" dala-o'quv maydoni tomon yo'l oldi. Bu jarayonda shaxsiy tarkib tezkorlik, aniqlik va hamjihatlik me'yorlariga qat'iy amal qildi hamda nuqtalarga yetib borgan vzvod va bo'linmalar belgilangan hududlarga joylashdi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, mashg'ulotlar o'quv-uslubiy jihatdan bir nechta yangicha harakatlarni o'z ichiga qamrab olgani bilan ajralib turdi. Bunda harbiy xizmatchilar jismoniy hamda ruhiy zo'riqish to'siqlarini yengib o'tish, tibbiy tayyorgarlik, muhandislik nazorati, hudud xaritasi bo'yicha ishlash, zirhli texnikalarni belgilangan hudud bo'ylab boshqarish, taktik harakatlarni guruh bo'lib birdamlikda bajarish, merganlik singari mashqlarni amalga oshirdi. Mashg'ulotlarning asl mohiyatida yurt himoyachilarining faqatgina nishonga o'q otishi emas, balki tabiiy sharoitlarga yaqin qilib yaratilgan universal to'siqlar yo'lagidan betalafot va epchillik bilan o'tish shartlari ham o'rin olgani ahamiyatli bo'ldi.

– Xalqaro maydonda o'z so'zi va o'rniga ega bo'lib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini o'tgan yillar bilan sira taqqoslab bo'lmaydi, – deydi podpolkovnik Baxtiyor Hakimov. – Bunda tizimda olib borilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, mashg'ulotlarga singdirilayotgan yangicha yondashuvlar, xususan qo'shinlarning jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi nostandart qadamlar harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasining tobora yuksalishiga xizmat qilmoqda. "Sazagan" dala-o'quv maydonida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar ham ayni shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilmoqda. Bunda batalyon shaxsiy tarkibi nazariy olgan bilimlarini

amaliyotda sinabgina qolmasdan, balki 1+3 modeliga asosan, yangi mutaxassislik bo'yicha egallagan bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda. Mashg'ulotlar bir nechta o'quv nuqtalariga bo'lingan. Marralarni egallagan har bir harbiy xizmatchi yangi egallaydigan mutaxassisligi bo'yicha jangovar qurollarning taktik-texnik tavsifini o'rganib, so'ngra keyingi mashg'ulotlarda ishtirok etadi.

Aytib o'tish kerakki, harbiy xizmatchilar belgilangan nishonlarni yo'q qilishda o'z mahoratlarini namoyish etdi. Komandirlar tomonidan qo'yilgan har bir topshiriq professional tarzda bajarilishi nazorat qilib borildi. Amalga oshirilgan harakatlar davomida tezkorlik, aniqlik, hamjihatlik sinovidan tashqari xavfsizlik qoidalariga ham qat'iy rioya qilindi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



Imtihon

O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutining bitiruvchi bosqich kursantlari shu kunlarda davlat imtihonlarini topshirmoqda. O'tgan haftada bo'lg'usi harbiy uchuvchilar va muhandis-texniklar Toshkent viloyatidagi "Chirchiq", Qarshidagi "Xonobod", Jizzax viloyatidagi "Uchtepa qo'rg'oni" harbiy aerodromlarida amaliy parvoz mashqlarida qatnashib, ilk sinovdan o'tdi.

PARVOZINGIZ BALAND BO'LSIN!

Kichik serijant Ixtiyor MAMAJONOV

Sinov parvoz mashg'ulotlari Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining mas'ul ofitserlari tomonidan kuzatildi. Uchuvchi va muhandis-texnik kursantlarning parvoz oldi tayyorgarligi kabi sinovlari ustozlar hamrohligi va nazoratidagi uchish, havoda o'ngga va chapga og'ish, belgilangan hududga aniqlik bilan qo'nish kabi mashqlarga ulandi. Bu jarayonda bitiruvchilarning amaliy bilim va ko'nikmalariga munosib baho berildi.

Bugun Harbiy aviatsiya institutining ilk bitiruvchilari ustozlik maqomida, oliy toifali harbiy uchuvchilar, aviatsiya muhandislari hisoblanadi. Ularning ortidan kelayotgan yosh lochinlar ham O'zbekiston Harbiy havo kuchlariga yangi quvvat bo'lib qo'shilish uchun mahkam bel bog'lagan. Ular besh yil davomida interaktiv darsxonalar, laboratoriyalar, axborot resurs markazi, real parvoz ko'nikmasini beradigan aviatsiya trenajyorlarida, shuningdek harbiy aerodromlarda yetarli saboq olishgan.

O'zbekiston Harbiy aviatsiya institutning ayni paytdagi harbiy-ilmij salohiyatini bundan besh yil avvalgiga taqqoslaganda bir necha foizga oshgan. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar, fan doktorlari, kursantlarning izlanish va tadqiqotlari alohida e'tirofga loyiq. Ayni paytda ular tomonidan uchuvchisiz uchish apparatlarini yaratish, radioelektron kurash yo'nalishlarida ilmiy loyiha ishlari davom etmoqda. So'nggi to'rt, besh yilda institutning ilmiy jamoasi izlanishlari asosida yaratilgan 20 ga yaqin ixtiro va ishlanma Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan patentlashtirilgan. Bu ma'lumotlar ayni paytda Harbiy havo kuchlariga yo'llanma olish uchun davlat imtihonlarini topshirayotgan kursantlarning darajasi, olgan bilim va ko'nikmalari qay darajada ekani haqida yetarli xulosalar qilishga asos bo'ladi.

Dunyoda harbiy uchuvchi va aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash eng qimmatli kasblardan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, mamlakatimizda bunga erishildi. Yaqin kunlarda O'zbekiston Harbiy havo kuchlarining mustahkam saflari yana bir guruh professional bilan kengayadi.

Parvozingiz baland bo'lsin!

Furqat ERGASHEV,
"Vatanparvar"



“Vatanparvarlar” harbiy sport musobaqasi



QORAQALPOQ YOSHLARI —

Umumta'lim maktablarining 10-11-sinflarida tahsil olayotgan, “Vatan tayanchi” otryadlari a'zosi bo'lgan o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan “Vatanparvarlar” harbiy sport musobaqasining respublika bosqichi yakunlandi.

Qurolli Kuchlar akademiyasining o'quv jarayonini ta'minlash bazasida tashkil etilgan bellashuvning tantanali yopilish marosimida mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, Qurolli Kuchlar faxriylari va yoshlar, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar 4 bosqichda mudofaa vaziri kubogi uchun o'tkazilgan ushbu musobaqa minglab yoshlarni bir maqsad yo'lida birlashtirganini ta'kidlab, har bir ishtirokchining kelgusida chinakam Vatan tayanchi bo'lib yetishishiga ishonch bildirdi.

Musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, poytaxtimiz va viloyatlardan saralangan 14 ta jamoa, dastlab ilk harbiy ko'nikmalarni sinovdan o'tkazadigan “Harbiylashtirilgan estafeta”, tibbiy bilimlarning amaldagi ifodasi bo'lgan “Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish”, turnikda tortilish

(o'g'il bolalar uchun), kuragi bilan yotgan holatda tanani ko'tarish (qizlar uchun), sinchkovlikni talab etuvchi “Merganlar” shartlarida bor kuch, bilim va imkoniyatlarini namoyon etdi.

Shuningdek, jamoalarning Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy faoliyati, Markaziy Osiyo davlatchilik tarixi va O'zbekiston tarixiga oid “Bilimdonlar”, “Arqon tortish”, “Safda qo'shiq aytish”, “Vatan madhi” badiiy-havaskorlik tanlovi hamda “Smart sardor” ixtirochilik bahsi bo'yicha shartlarda erishgan natijalari hakamlar hay'ati tomonidan xolisona baholab borildi.





G'OLIB!



O'z jamoasi uchun mardonavor kurashayotgan, qalbida vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh urayotgan yoshlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchi yuksak. Bu ularning shijoatida, intilishlarida yaqqol aks etdi. Uch kun davom etgan harbiy sport musobaqasi davomida yoshlar bilan turli madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar tadbirlar, sayohatlar uyushtirildi. Gulxan atrofida tashkil etilgan davra suhbatida ertamiz egalari bilan samimiy savol-javoblar o'tkazildi.

Qizg'in va murosasiz bahslar natijasiga ko'ra, "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqasida 3-o'rinni Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi 4-maktab jamoasi, 2-o'rinni Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 193-maktab o'quvchilari egalladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonliko'l tumanidagi 2-maktab jamoasi esa mudofaa vaziri kubogi sohibi bo'ldi.

Shuningdek, merganlik bellashuvida pnevmatik qurol orqali 96 ball olgan Omina Husanova (Toshkent shahri) "Mohir mergan", turnikda 39 marotaba tortilgan

Abay Janaboyev (Qoraqalpog'iston Respublikasi) "Eng kuchli sportchi", tariximizga oid 30 ta savoldan deyarli barchasiga to'g'ri javob bergan Marhabo Tursunboyeva (Surxondaryo viloyati) "Eng bilimdon ishtirokchi", qo'lda masofadan boshqariladigan minalashtirish mashinasini ixtiro qilgan Mehriniso Hosilbekova (Jizzax viloyati) "Eng yaxshi ixtirochi", Jahongir Obلاقulov (Qashqadaryo viloyati) "Eng yaxshi ijrochi" nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Faxrli o'rinlarga sazovor bo'lgan jamoalar hamda nominatsiyalar g'oliblariga kubok, diplom, statuetka va esdalik sovg'alar topshirildi. Qolgan jamoalar ham hamkor tashkilotlarning qimmatbaho sovg'alari bilan rag'batlantirildi.

Tadbiring badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining konsert dasturi barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Yosh vatanparvarlar yuksak orzular, yangi qarashlar, qat'iy maqsadlar bilan o'z viloyatlariga qaytishdi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**



Yosh chegarachilar



SHIJOAT. MATONAT

Mamlakatimizning chegaraoldi hududlaridagi umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan yoshlarni Vatanga muhabbat, harbiy burchga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni chegara xizmatiga qiziqtirish va bosqichma-bosqich tayyorlab borish maqsadida, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari va qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining 2025-yilgi mavsumi respublika final bosqichi ko'tarinki ruhda tashkil etildi.



Unda musobaqaning tuman (*shahar*) va viloyat bosqichlarida muvaffaqiyatli qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritgan 13 ta jamoa tarkibidagi 130 nafar o'g'il-qiz o'zaro bellashdi.

Uch kun davom etgan musobaqaning dastlabki kunida ishtirokchilar uchun poytaxtimizning diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil etildi. Ilk manzil an'anaga ko'ra, Amir Temur va uning shajarasi tarixidan so'zlovchi "Temuriylar tarixi" davlat muzeyi bo'ldi. Har yili musobaqa ishtirokchilarining Toshkent shahri bo'ylab sayohati aynan ushbu manzildan boshlanishi bejiz emas albatta. Zero Amir Temur o'z tuzuklarida qo'shinining uchdan bir qismini aynan chegaralar himoyasiga yo'llaganini, ularning turish-turmushi va ta'minotiga alohida e'tibor qaratganini yozadi.

– Biz musobaqaga Qashqadaryo viloyatidan keldik. Shu bois jamoamizni "Sohibqiron" deya nomlaganmiz. O'lis chegaraoldi hududida istiqomat qilganimiz sababli ushbu muzeyda avval bo'lmagan edik. Musobaqa bizga buyuk bobokalonimiz haqida ko'plab tarixiy

ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan mazkur muzeyga sayohat qilish imkonini berdi. Bu bizga Amir Temur vorislari sifatida bellashuvlarda juda katta kuch-g'ayrat bag'ishlaydi, – deydi jamoa a'zosi Otabek Toshtemirov.

Qalblarida yoshlik shijoati va g'ayrati jo'sh urgan yosh chegarachilar poytaxtimiz bo'ylab sayohat davomida "Yoshlar ijod saroyi"da bo'lib, bu yerda kelajagimiz bunyodkorlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tashkil etilgan ijodiy uchrashuv davomida esa uyushma raisining o'rinbosari, taniqli shoir Minhojiddin Mirzo, shoirlar Salim Ashur va Shodi Otamurod yoshlarga yurtga muhabbat, insoniylik va mehr-oqibat tuyg'ularini tarannum etuvchi she'rilaridan o'qib berdi. Uchrashuvda faol qatnashgan o'g'il-qizlar uyushma tomonidan kitoblar bilan taqdirlandi.

Shundan so'ng yosh chegarachilar "Adiblar xiyoboni"da bo'lib, so'z mulkingning sultoni, Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo'ydi. Poytaxtimizdagi "Magic city" xiyoboniga tashrif va bu yerdagi musiqiy favvoralar tomoshasi ham barchaga birdek manzur bo'ldi.

Musobaqaning ochilish marosimi tantanali ruhda boshlanib, unda ishtirok etgan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari rahbariyati, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, hamkor vazirlik va idoralarning vakillari yoshlarni yakuniy bosqichga





VA ZAKOVAT BELLASHUVI



yetib kelganlari bilan qutlagach, bellashuvlarga start berildi.

Dastlabki shartda jamoalarning safda shaxdam qadam bilan qo'shiq aytib o'tish ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor jamoa a'zolarining safda yurish qonun-qoidalarini nechog'li o'zlashtirgani, safda qo'shiq aytib o'tish davomida esa ularning ijro mahoratlari bilan birgalikda shart uchun tanlagan qo'shiqlar matnida harbiy-vatanparvarlik ruhining aks etish darajasi ham baholandi.

Navbatdagi, maxsus harbiy liboslar, albom, vimpel va Kalashnikov avtomati maketi ko'rigi davomida jamoa sardorlari o'zining notiqlik mahoratini namoyon etib, har bir atribut va kichik detalning

ham qanday ma'no aks etishini birma-bir ta'riflab berdi.

Bilimlar sinovi sharti yoshlarning ona tili va adabiyot, matematika, fizika kabi fanlar, shuningdek Davlat chegarasi to'g'risidagi qonun yuzasidan bilimlarini sinovdan o'tkazgan bo'lsa, avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish jarayonida o'g'il-qizlar o'zining epchilligini namoyon etdi.

Navbatdagi shart qisqa va uzoq masofaga yugurish bo'lib, unda o'g'il bolalar 1 000 metr, qiz bolalar esa 100 metr ga yugurishlari talab etildi. Avvaldan o'zlarini jismonan chiniqtirib kelgan, yaxshi tayyorgarlikka ega ishtirokchilar ushbu shartlarni osonlik bilan uddaladi. Shuningdek, o'g'il bolalar

turnikda tortilish mashqini ham barcha talablardan kelib chiqqan holda tez va to'g'ri bajarishga harakat qildi.

Kun yakunida ishtirokchilar uchun ko'p yillar avval "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasida ishtirok etib, hozirda DXX Chegara qo'shinlari safida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilar ishtirokida motivatsion suhbat tashkil etildi.

Musobaqaning uchinchi kuni shiddatli va yorqin taassurotlarga boy tarzda kechib, jamoalar harbiylashtirilgan estafetada chaqqonlik, epchillik va shijoat bilan shartlarni bajarishga kirishdi. 25 metr masofaga granata uloqtirish, zararlangan hududdan gazniqoblarni tez va to'g'ri kiygan holda jamoa tarkibida

o'tish, azimut bo'yicha harakatlanib, kompas yordamida belgilangan nuqtalarni topish, to'siqlar yo'lagi va sim to'siqlardan o'tish, o'q-dorilarni belgilangan hududlarga tezlik bilan yetkazib berish, jarohatlanganlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish shartlari va kompyuterli otish trenajyoridan o'q otish mashqi barcha jamoalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarildi.

Ta'kidlash kerakki, shartlardan hamjihatlik bilan, tez va chaqqon o'tgan yosh chegarachilar musobaqalarning tuman (*shahar*) hamda viloyat bosqichlarida haqli ravishda g'oliblikni qo'lga kiritganlarini amalda namoyon etib berdi.

Musobaqaning taqdirlash marosimi ham ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda so'z olganlar bugun mamlakatimizning "oltin fondi" bo'lgan kelajagimiz bunyodkorlariga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham yuqori ekanini, o'z navbatida, bilimli, zukko va salohiyatli yoshlar o'z intilishlari-yu shijoatlari bilan yangi-yangi marralarni zabt etib kelayotganlarini ta'kidladi.

Dastlab shartlarning har birida yuqori natijalar ko'rsatgan jamoalarning a'zolari yakka tartibda taqdirlangach, yigitlar bilan bir safda turib shijoat-u matonatini namoyon etgan o'quvchi-qizlar alohida e'tirof etildi. Shundan so'ng eng

hayajonli daqiqalarga navbat yetib, g'oliblar birin-ketin e'lon qilindi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 3-o'rinni Sirdaryo viloyatining Shirin shahridagi 4-umumta'lim maktabining "Burgutlar" jamoasi egallagan bo'lsa, 2-o'ringa Jizzax viloyatining Mirzacho'l tumanidagi 8-umumta'lim maktabining "Vatanparvar" jamoasi munosib deb topildi.

"Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining 2025-yilgi mavsumi mutlaq g'olibligi esa Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi 2-umumta'lim maktabining "Temurbeklar" jamoasiga nasib etdi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Qahramonlar nomi barhayot



*Do'stlari kelsa-yu, kelmasa bolam,
Do'stlari kulsa-yu, kulmasa bolam.
Bir paytlari sochlarin to'zg'itgan shamol
Hovlida yursa-yu, yurmasa bolam.*

Oxirgi paytlar Sariosiyo voqealarida halok bo'lgan qahramonlar haqida ko'p yozdim. Har birining taqdiri boshqasiga o'xshamagan, har birining o'z hikoyasi bor. Aslida, bu yigitlar haqida shunchaki yozib bo'lmaydi. Yozmay ham ko'ring-chi, o'z holingizga qo'yarmikan bu achchiq qismatlar?

O'n gulidan biri ham ochilmagan yigitlarning yov qarshisida Vatan tinchligi yo'lida fido bo'lgan umrlari haqida shunchaki qog'oz qoralash tubanlikdan boshqa narsa emas. Qisqa umri davomida barhayot yashab kelayotgan qahramonlar hech qachon bu millatning ko'nglidan chiqmaydi.

Bugun sizlarga so'zlab bera olmayotgan, nomini tilimga olsam, vujudim titroq ichida



DO'STLARI KELSA-YU,

qolgandek qiynalayotgan hikoyam ham **Vatan tinchligi yo'lida qahramonlarcha jon bergan jasur yigit Muhiddin Eshtemirov haqida.**

MA'LUMOT O'RNIDA: Muhiddin Husanovich Eshtemirov 1975-yil 13-aprel kuni Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi Namuna mahallasida tug'ilgan. 1992-yilda umumta'lim maktabini a'lo baholar bilan tamomlagach,

Termiz davlat universitetining Tarix fakultetiga o'qishga kirgan. Ushbu bilim maskanini 1997-yilda muvaffaqiyatli tugatgan Muhiddin o'zining muqaddas burchi – Vatanni himoya qilish maqsadida muddatli harbiy xizmatga safarbar etilgan. 2001-yil may oyida Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda shartnoma asosida xizmatga qabul qilingan. 2001-yil 14-iyul kuni Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanining tog'li hududida bo'lib o'tgan jangovar harakatlar chog'ida dushmanga qarshi mardlarcha kurashib, halok bo'lgan.

Bolaligi olis Surxon tog'laridan osmonga tutashib ketgan beadoq kengliklarda o'tgan. Tabiatan ziyrak, bilimga chanqoq, musiqani jon-dilidan sevib, qo'shiqlar kuylab ulg'aygan qishloqning chinakam jaydari farzandi. Onasining ta'biri bilan aytganda, qishloqning eng oldi yigitlaridan.

Keling, shu suhbatni qahramonimizning onasidan tinglaymiz.

– To'qqiz farzandim bor: besh o'g'il, to'rt qiz. Muhiddin oltinchi farzandim. Kichkinaligidan zukko edi, hamma ishni joy-joyida qilar, aytmasimdan barcha vazifalarni ortig'i bilan bajarardi. Qishloqchilik, mol-hol degandek, o't olib kelish, yer chopish, dala ishlari bo'ladimi, birortasidan bo'yin tovlamagan. Yugurib-yelib xizmatimni qilardi bolam bechora. Bolaligi sport va san'atga uyg'un o'tgan. Gitara chalib, qo'shiq kuylardi, mahalladagi ayollar bormi, qizlar bormi, hammasi yig'ilib kelardi qo'shiq eshitgani. Karate, kurash bilan shug'ullanardi. To'ylarda kurash tushib, qishloqning orini ham olib yurgan. Maktabda 10 yil o'qigan bo'lsa, biror marta ham yomon gap eshitmaganmiz Muhiddinimning ortidan. Termiz universitetini a'lo baholar bilan tugatgach, armiya xizmatiga ketdi. Bolam harbiy xizmatda ham eng faol askarlardan bo'lgan. Kelgandan so'ng otasi maktabga ishga joylab qo'yay dedi, unamadi. **"Yo'q, men Vatan himoyachisi bo'laman, Vatanimga xizmat qilaman"**, deb turib oldi. Bolamning ra'yiga qarshi bora olmadik, keyin o'zim ham farzandimni Vatan himoyasida ko'rishni judayam istardim.

Tebranayotgan noxun
changalida titrayotgan
tanbur torlaridan
taralgan dardli noladek
bir xonish ta'qibida
qolib ketganman.
Kimningdir olisdan elas-
elas eshitilayotgan
ovozlari yuragimni sel
qilib yubormoqda. Ko'z
oldimda Vatan bayrog'ini
baralla ko'targan
o'g'lonlar, boshiga oq
o'ragan onalarning
mungli nigohlari jonlanib
turibdi.





KELMASA BOLAM

Sariosiyo voqealarida halok bo'lgan Muhiddin Eshtemirovni shu atrofda yashovchi mahalliy odamlardan biri aldaydi. O'zini qariya cho'pon ko'rsatib, dushmanlarning qarorgohini bilishini, ularning oldiga boshlab borishini aytadi. Qahramonimizni ergashtirib borib, dushmanlar qo'lga topshiradi. G'animlar mard askarimizni zolimlarcha qiynoqqa solib o'ldiradi.

Sodda bahodir haqida she'r

1

Jang borardi – dushman quturgan,
Ko'zi qonga to'lgan g'animlar.
Otasini otgan,
o'g'lini sotgan,
Xudoni unutgan mal'unlar.

Vatanimga qilgandi yurish,
Tinchligimga solgandi raxna.
Og'ir edi jim qarab turish,
Oh, naqadar qo'rqinchli sahna.

Jang borardi, nokas oyog'i
Tuproq'imni turardi bulg'ab.
Qaydan bilsin Vatan qadrini
Bu dunyoda Vatani yo'qlar?

Nahot shuncha jo'n edi reja,
Manguberdi o'sgan tuproqni.
Bir hamlada qilishib o'lja,
Ot choptirib kirish osonmi?

Bu tuproqdan ungan chechaklar
Sug'orilgan mardlik qoniga.
Jonin bersa, beradi, ammo
Vatanini bermas g'animga.

2

Jang borardi –
yer tishlar g'anim
Mard bahodir erlar qoshida.
Ko'krigidan o'q yegan biri,
Qon sizardi birin boshidan.

Berkinishar tog'-u dalaga,
O'rta qichqolmay so'kinar.
Ildizi qurigan daraxtday
Mardlarning poyiga yiqilar.

3

Va bir askar ko'zi tip-tiniq,
Jangga kirar qo'rquv unga yod,
Yelkasiga ortib yurtini
G'alabadan keltirar sabot.

Borar mag'rur, tog'lardek o'ktam,
Borar mag'rur, daryoday toshqin.
Orqasiga boqmas lahza ham,
Mag'rur borar misoli qashqir.

Ayamaydi yovni beomon,
Chap beradi g'anim o'qiga.
Ha, u shunday sodda va jasur,
Bu so'zlarda yo'qdir to'qima.

4

Nogoh yo'lda uchradi cho'pon,
"Bolam", deb zorlandi nigohi.
Bu ko'zlarda ko'rmadi yolg'on,
Bu nigohda yo'q edi yog'iy.

Qariya bobosin esladi –
Yetmish yil qo'y boqqan dahoni.
Bir ko'ngli gumonga bordi-yu,
O'rta qo'ygandi Xudoni.

Bolam, bobong aylansin, dedi,
Bolam, yurtning aylansin, dedi.

"Yigit boshing ko'rmasin hech g'am,
Bu g'animlar meni ham yedi.

Uch kunki och, uch kunki suvsiz,
Dushmanlardan topolmay omon,
Bolam, yetmish yoshimda holsiz,
Shu qoyada saqlayapman jon".

Ishondi, tuz berdi, suyadi,
Sodda-da – qishloqning bolasi.
Yolg'onni farqiga bormagan,
– Bobo, yaxshi bo'lar hammasi.

"Dushmanni ko'rdim", der makkor chol,
"Huv ana darada saqlar jon.
Yo'l boshlab boraman yoniga,
Ishongin sen menga, mard o'g'lon".

5

Cho'pon aldadi,
Aldadi ko'zlar.
G'animning yo'ldoshi
chiqdi bu zang'ar.
Nonin yeb, tuzin yeb,
Xudodan so'zlab,
Bahodir bo'yniga tiradi xanjar.

O'q tegsa, bunchalar yonmasdi,
O'limdan og'irroq dard edi.
O'zi ham cho'ponning bolasi,
Qishloqda cho'ponlar mard edi!

Cho'pon aldadi,
O'ldirmadi ham,

Bu so'zlarni tahrir qilib yozishga ham menda kuch yo'q endi. "Cho'pon aldagan", deydi onaizor. "O'zimizning odamlardek kiyingan, eshakka minib kelayotgan bir cholga yordam bermoqchi bo'lgan. Cho'pon: "Sizlarga dushmanlar yashiringan joyni ko'rsataman", deb aldab, pistirmaga olib borgan. Bolamni asir olib, qiynab o'ldirishgan", deya ho'ngrab yig'lab yuboradi onaizor.

Endi na mening savol berishga holim bor, na onaning javob berishga. Bir-birimizga uzoq termilib qoldik. **Vatanning shunday oqko'ngil, mard o'g'lonlari bor ekan, bu yurt g'animlarga hech qachon bosh egmaydi.**

Muhiddin Eshtemirov o'z xizmat burchini mas'uliyat bilan bajargan, harbiy intizomga rioya qilgan, el-yurtini sidqidildan sevgan jasur zobit edi. Sariosiyo tumanining tog'li hududida bo'lib o'tgan jangovar harakatlar chog'ida u dushmanga qarshi mardlarcha kurashgan. Kuchlar teng emasligiga qaramasdan Muhiddin Eshtemirov pistirmada kutib yotgan terrorchilardan ikki nafarini yer tishlatgan, granata uloqtirgan va safdoshlariga xabar berishga ulgurgan. Biroq yana o'sha kuchlar nomutanosibligi qahramonimizni vahshiy terrorchilar qo'lida azoblanib o'lishiga olib keldi. Qiynashlar samara bermagan – Muhiddin Eshtemirov Vatanini sotmagan, qasamyodiga sodiq qolgan chinakam qahramon edi.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"

Tarix va jasorat maskani 60 yoshga to'ldi



Tarix bu nafaqat o'tmish voqealarining majmuasi, balki millat xotirasi, xalq g'ururi va avlodlar o'rtasidagi ruhiy bog'lanishdir. Shu ma'noda muzeylar, ayniqsa harbiy sharaflar va jasorat timsoliga aylangan Qurolli Kuchlar davlat muzeyi tarixni saqlovchi, uni kelajak avlodga yetkazuvchi bebaho xazina hisoblanadi. Bu maskan har bir tashrif buyuruvchiga Vatan mudofaasi yo'lida fidokorona xizmat qilgan ajdodlarimiz jasoratini, ular bosib o'tgan mashaqqatli yo'lni, har bir eksponat esa ulug'vor tariximizning jonli guvohiga aylanganini eslatadi.

Muzey nafaqat eksponatlar jamlanmasi, balki yosh avlod qalbida yurtga sadoqat, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalovchi, ularni yuksak g'oyalar ruhida kamol toptiruvchi muqaddas maskandir. Aynan shunday ezgu maqsad va ulug'vor vazifalarni bajarayotgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi o'zining 60 yillik faoliyati davomida minglab insonlarning qalbida tarixga, armiya sha'niga va Vatanga bo'lgan cheksiz hurmat tuyg'usini uyg'otib kelmoqda.

Ana shunday sharaflar sana – Qurolli Kuchlar davlat muzeyi tashkil etilganining 60 yilligi munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda muzey xodimlari, faxriylar, harbiylar hamda yosh avlod vakillari ishtirok etdi. Tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev ishtirok etib, vazirning soha xodimlariga bayram tabrigini o'qib eshittirdi. Shuningdek, faxriy mehmonlar so'zga chiqib, muzey faoliyati haqida iliq fikrlar bildirdi, xodimlarni ushbu tarixiy sana bilan qutlab, sharaflar faoliyatlariga omadlar tiladi.

Tadbir davomida Qurolli Kuchlar davlat muzeyining bugungi kundagi faoliyati, unda amalga oshirilayotgan keng ko'lami ilmiy, tarbiyaviy va ma'rifiy ishlar alohida e'tirof etildi. Ayniqsa, muzey jamoasi tomonidan yaratilgan tematik ko'rgazmalar, tarixiy manbalar asosida tayyorlangan ekspozitsiyalar, zamonaviy yondashuv asosida tashkil etilgan interaktiv tadbirlar yosh avlod qalbida milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Muzejda o'tkazilayotgan ma'rifiy tadbirlar, tarixiy darslar, harbiy-vatanparvarlik suhbatlari yoshlarda o'z xalqining o'tmishiga bo'lgan hurmatni, Vatan oldidagi burchini chuqur anglashga undaydi. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalarning hayoti va jasoratli faoliyatiga

bag'ishlangan ko'rgazmalar yoshlar uchun chinakam ilhom manbaiga aylanmoqda. Bu ko'rgazmalar nafaqat tarixiy ma'lumotlarni taqdim etadi, balki yoshlarni qahramonlik, fidoyilik va vatanparvarlik yo'lida hayotiy namunalarga ergashtiradi.

Muzejning sohadagi samarali faoliyati e'tiborsiz qolmadi. 2023-yilda Madaniy meros agentligi tomonidan ushbu maskanga "Oliy toifali muzey" maqomi berildi. Ushbu maqom respublikamizda faoliyat yuritayotgan 100 dan ortiq muzey orasida faqat bir nechtasiga nasib etgan bo'lib, bu Qurolli Kuchlar davlat muzeyi jamoasining yillar davomida olib borgan mashaqqatli va fidokorona mehnatiga berilgan munosib bahodir.

Tadbirning badiiy qismi ham ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Unda Mudofaa vazirligining alohida namunali-ko'rgazmali harbiy orkestri, Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli, shuningdek Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan tayyorlangan vatanparvarlik ruhida sahna ko'rinishlari, qo'shiq va raqslar namoyish etildi.

Bugun O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi nafaqat tarixiy eksponatlarni saqlash, balki ularni chuqur o'rganish, targ'ib etish va yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani bajarishda muhim rol o'ynamoqda. Kelgusida ham muzey jamoasi bu sharaflar yo'ldan og'ishmay, xalqimizning boy tarixiy merosini avaylab-asrash va uni butun dunyoga tanitishda faol ishtirok etishiga ishonamiz.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga

JADID MODERNI

XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan milliy uyg'onish va milliy ozodlik harakati jahon tarixida mustamlaka xalqlarning ilmiy va milliy modernizatsiyaga intilishidagi katta jarayonlarning ajralmas qismidir. Ushbu harakatning mafkuraviy asosini jadidchilik tashkil etdi. Jadidchilik bu faqat ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar harakati emas, shu bilan birga keng qamrovli madaniy, siyosiy va intellektual inqilob xarakterini olgan milliy mafkuraviy harakatdir.

Jadidlar Turkiston xalqlarining mustamlakachilikdan ozod bo'lishi, milliy ongning uyg'onishi uchun maorif, matbuot, teatr, siyosat va madaniyat vositasida kurash olib bordi. Ular maorifni isloh qilish yo'li bilan Sho'ro mustamlakasiga qarshi samarali g'oyaviy tizim yaratdi.

Jadidchilik mafkurasining asosiy muhim g'oyaviy ustuni milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash bo'ldi. Ular xalqni diniy ta'limdan voz kechmagan holda Yevropa tajribasi asosidagi milliy maorif orqali tarbiyalashga intildi.

Jadidlar harakatini to'g'ridan to'g'ri milliy o'zlikni uyg'otishga qaratilgan mafkuraviy harakat deyish mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa jadid mutafakkirlar milliy o'zlikni anglash va uni ilmiy, madaniy hamda siyosiy shaklda asoslash yo'lida faol ish olib bordi.

BU XUSUSDA O'zbekiston tarixshunosligida mustaqillikdan so'ng milliy tarixni qayta tiklash va g'oyaviy yondashuvlardan xalos etish jarayonida metodologik izlanishlar avj oldi. Biroq bu jarayonda tarixiy bilishga oid epistemologik asoslarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurati hanuz dolzarb. Ahmad Zaki Validiyning tarixni tushunishdagi kompleks yondashuvi – ratsional va an'anaviy bilim tizimlarini uyg'unlashtirishi, manbalar tanlovi va tahlilidagi mukammallik, tarixi voqelikni “milliy subyekt” nuqtayi nazaridan tahlil qilishga urinishi – bugungi kunda O'zbekiston tarixshunosligida metodologik nuqsonlarni bartaraf etishda katta amaliy va nazariy ahamiyatga egadir.

Jadidlar “millat” tushunchasiga faqat etnik yoki diniy umumiylik emas, balki ongli tarixiy subyekt sifatida qaradi. Abdurauf Fitrat o'zining “O'zbek tili adabiyoti” (1918), “Hind ixtilochilari” va boshqa asarlarida xalqni millatga aylantirish uchun ona til, tarixiy xotira va siyosiy ong zarurligini ta'kidlaydi. Uning ta'biri bilan aytganda: **“Millat shu bo'lurkim, u o'ziga xos til, tafakkur va harakat bilan boshqalardan farq qiladi”**.

Jadidlarning milliy o'zlik tushunchasida ona tili markaziy o'rinni egallaydi. Ular arab yoki fors tili emas, balki xalqning o'z ona tilida ta'lim, axborot olishi va madaniy ilmiy merosini yaratishi lozimligini targ'ib qildi. Abdulla Avloniy “Til millatning ruhi, qalbi va zehnidir”, deb yozadi. Shu asosda “Turon”, “Sho'royi Ulamo”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston” kabi nashrlar yaratildi va ona tildagi bosma matbuot milliy ongni shakllantiruvchi muhim vositaga aylandi.

Jadidlar ilmiy merosida tarix va millat xotirasi Mahmudxo'ja Behbudiy va Fitratning maqolalarida aks etib, tarixiy xotiraning “yo'qotilishi” millatning zaiflashishiga olib kelishi alohida ta'kidlanadi. Ular xalqning o'z tarixini, o'tmish qahramonlarini bilishini, mustamlakachilikka qarshi tarixiy immunitetni shakllantirishini milliy o'zlikning uzviy qismi deb bilgan.

Jadidlarga ko'ra, milliy o'zlik faqatgina madaniy kategoriya bo'lib qolmay, balki siyosiy ong va ozodlik tushunchalari bilan bog'liqdir. “Turkiston muxtoriyati” g'oyasida jadidlarning ilmiy-siyosiy faoliyati yuqori nuqtaga yetdi.

Ularning til, ta'lim, tarix, din va siyosiy ozodlikka doir qarashlari milliy o'zlikni tiklashga qaratilgan mafkuraviy platformani shakllantirdi. Bu platforma asosida jadidlar islom va ilmiy modern uyg'unligi – islom qadriyatlarini saqlagan holda Yevropa ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotidan foydalanish g'oyasini ilgari surdi. Ular dinni jamiyat rivoji uchun to'siq emas, balki unga vosita sifatida ko'rtdi.

JADID MUTAFAKKIRLARI Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar islomning ma'naviy-axloqiy qudratini saqlagan holda unga zamonaviy bilim, texnologiya, ilm-fan va ijtimoiylashuv xarakterini uyg'unlashtirishga harakat qildi. Bu g'oyaviy sintez ularning barcha asarlari, siyosiy faoliyati va maorif sohasidagi islohotlarida o'z aksini topdi. Ularning “Usuli jadid” maktablarida diniy bilim bilan birga geografiya, tarix, matematika, tabiatshunoslik kabi fanlar ham o'qitildi. Bu tajriba an'anaviy va zamonaviy ilmni integratsiya qiluvchi model sifatida namoyon bo'ldi.

Jadid nashrlarida (masalan, “Oyina”, “Taraqqiy”, “Sho'royi Ulamo”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg'ona”) islom va modern uyg'unligining g'oyaviy-huquqiy asoslari keng yoritildi. Jadidlar fikricha, musulmon inson diniy qadriyatlariga sodiq bo'lgan holda faol fuqaro, mustaqil fikr egasi, zamonaviy dunyoviy bilimga ega va jamiyat rivojida faol ishtirokchi bo'lishi kerak edi.

Fitratning “Hindiston” va “Olimlarimizga” kabi asarlarida G'arb islohotlari misolida islom olamida qanday qayta tiklanish mumkinligi tahlil qilinadi. Biroq ular G'arbnin kolonial mafkurasini va ma'naviy tanazzulini qattiq tanqid qilgan.

Jadidlar uchun ma'rifat nafaqat ilm-fanni o'rganish, balki insonning o'zligini anglash, jamiyatni uyg'otish va milliy ozodlikka intilish yo'lidagi strategik vosita sifatida ko'rildi. Ularning faoliyatida ta'lim islohoti ma'naviy qayta tirilishning boshlang'ich nuqtasi sifatida namoyon bo'ldi.

Jadidlarning besh-olti yillik maktablarda diniy fanlar bilan bir qatorda tabiatshunoslik, matematika, geografiya, tarix, ona tili va adabiyot, gigiyena kabi fanlar o'qitildi. Bu ta'lim modeli jadidlarning islomiy an'analar va modern fanlar uyg'unligiga qaratilgan yondashuvining amaliy ifodasi bo'ldi.

JADIDLAR FIKRIGA KO'RA, ma'rifat erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o'z taqdirini o'zi belgilash salohiyatini anglatadi. Ular ma'rifatni shunchaki bilim emas, balki millatning ruhiy va siyosiy mustaqilligi uchun zarur shart sifatida ko'rtdi. Jaholat mustamlakachilikning eng qudratli quroli, ma'rifat esa unga qarshi quroldir.

1917-yildagi fevral inqilobidan so'ng jadidlar oldida yangi siyosiy imkoniyatlar ochildi. Ular Turkiston muxtoriyatini e'lon qilish orqali xalq xohishini ifoda etdi. Qo'qonda tashkil etilgan mazkur tashkilot nafaqat jadidlar siyosiy faoliyatining, balki mustaqil davlatchilik g'oyasining amaliy ifodasi bo'ldi.

Muxtoriyat Turkiston uchun modern davlat modelini taklif qildi. Afsuski, bu tarixiy urinish 1918-yil yanvar oyida Sovet hukumati tomonidan qonli yo'l bilan bostirildi.

Intellektual siyosiy elitani shakllantirish jadidlarning eng muhim maqsadlaridan biri edi. Ular zo'ravonlik, qo'zg'olon yoki qasos olish bilan emas, balki kishilar faolligi va ma'rifat orqali xalqni ozodlikka tayyorlash strategiyasini qo'lladi. Shuning uchun ham jadidchilik mafkurasini millatparvarlik va zamonaviylik g'oyalarini o'zida mujassam etgan keng qamrovli intellektual loyiha deyish mumkin. Ma'rifat bilan boshlangan, ijtimoiy ong bilan chuqurlashgan va Turkiston muxtoriyati bilan amaliy ifoda topgan intellektual-mafkuraviy harakat xalqni jaholat va mustamlakachilik zanjirlaridan qutqarishning amaliy va nazariy asoslarini shakllantirdi. Turkiston milliy-ozodlik harakati aynan shu mafkuradan g'oyaviy quvvat oldi.

Mo'minjon XO'JAYEV,
Alfraganus universiteti
Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi
rahbari, falsafa fanlari doktori
(DSc), professor

Mutolaa

Urush insoniyatning eng katta xatosidir. Bu xulosa yer yuzida shu vaqtga dovur sodir etib kelinayotgan jang-u jadallardan, uning insoniyat boshiga solgan og'ir ko'rgiliklaridan, zil-zambil xotiralaridan chiqarilgan. Tarixchi P. Sudoplatov o'tgan besh ming yil davomida dunyoda 14 500 ta urush sodir bo'lib, unda 3.5 mlrd kishi halok bo'lganini qayd etadi.



Urushga gul tutgan asar



Vatanimiz kechmishida ham ko'p urush va bosqinlar bo'lganki, bu, o'z navbatida, xalqning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotiga salbiy ta'sir etgan. Millionlab millatdoshlarimiz safarbar etilgan Ikkinchi jahon urushining asoratlari hali-hamon qalblarni timaydi. O'zbekistondan jangga ketgan o'g'lonlarning urushning so'nggi kunigacha mardona, fidoyilarcha kurashgani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

Ana shunday manbalar ichida urush haqida yozilgan badiiy asarlar alohida o'rin egallaydi. Ikkinchi jahon urushi to'g'risida yozilgan ko'plab she'r va dostonlar, marsiyalar, hikoya va romanlarning har biri xalqimizning sadoqati va matonatidan, yigitlarimizning jasoratidan hikoya qiladi. Jang maydonlariga tonnalab paxta, sholi, g'alla hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak yuborildi. Bu ishlarning barchasi yosh bolalar, ayollar va qariyalar chekkan

zahmat va mashaqqat tufayli amalga oshdi. Ana shunday mehnatkash insonlar haqida ko'plab san'at asarlari, qo'shiq va yallalar, kinofilmlar yaratildiki, ular hozirgi kunda oltin fondimizga aylangan.

Yaqinda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli tarixchi olim, yozuvchi To'liqin Hayit "Gul va Qurol" nomli romanini o'quvchilarga tuhfa qildi. Bu yangi asar shu vaqtgacha biz bilgan, eshitgan qahramonlar haqida emas, balki aksariyatimiz bilmagan, tarixiy manbalarda qayd etilmagan, lekin qo'rqmasligi, o'zbek jangchilari ichida sardorligi bilan obro' va e'tibor qozongan Solihjon Umarov haqidadir.

Asarning "Gul va Qurol" deb nomlanishining o'ziyoq asar mohiyatini kitobxon shuurida biroz bo'lsa-da oydinlashtiradi. Bugun ham urushlar ertak emas, bugun ham osmonimizda qushlar o'rni o'qlar guvullab uchib turganida, Yer yuzining qay burchaklari hamon janggohlarga aylanib turgan

hozirgidek paytda bu asar bizni bir qadar sergaklantiradi.

Ramziy tasvirlar bilan boshlangan roman Gul va Qurolning tasodifiy to'qnashuvi, suhbat o'quvchini o'ziga tortadi. Asli olamning ikki qutbi bo'lgan bu vositalarning hayotda bajaradigan vazifasi ikki xil. Oq va qora, issiq va sovuq, hayot va ajal kabi bir-biriga zid bo'lgan, gardaniga turli yumushlar yuklatilgan Gul va Qurolning dunyoda abadiyligi qanchalik achchiq haqiqat ekanini his etasiz.

Romanda biz odatda ko'nikkan, kutgan urush sahnalari bilan birga bosh qahramon Solihjonning tabiati, tuyg'ulariga keng o'rin beriladi. Ayniqsa, uning har qanday vaziyatda ham mardlarcha harakati, kechirimlili, jo'mardligi tom ma'noda o'zbekona xarakterni ifodalaydi. Shuningdek, asar tarixda yovuzligi, siyosiy boshqaruvi jihatidan o'ta mulohazakorligi va bilimdonligi bilan nom qoldirgan ikki shaxs – Stalin va Gitler siymolariga ham

yaqinroqdan qarash, hatto ularning ichki olamiga, orzu va armonlariga, o'kinch va umidlariga oshno bo'lish imkonini beradi.

Yozuvchi asarni sal kam yetti yil mobaynida qog'ozga tushirar ekan, tarixiy faktlarga suyangani, Solihjon haqidagi ma'lumotlarni topishda uddaburonligi badiiy bo'yoqlarning erkin yurgizishida seziladi. Solihjon oddiy askar emas, chin ma'noda jang qahramoni, u buyuk Bobur Mirzo avlodlaridan ekaniga ishoralar bor. Uning qonida sheryurak, arslonpanja ajdodlarning qoni gupurib turibdi, deydi yozuvchi. Muallif bugungi kunga qadar tarixiy mavzularda qalam tebratib kelgani tufayli bu asarni yozish u qadar qiyin kechmaganini aytadi.

O'ylaymizki, yozuvchi To'liqin Hayitning yangi romani "Gul va Qurol" o'qirmanlar tomonidan qizg'in kutib olinadi.

Nargiza ASADOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Maktabgacha ta'lim tizimida

EKOLOGIK TARBIYANING YANGI BOSQICHI

Dunyoda ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotgani ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalarining dolzarbligini kuchaytirmoqda.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, ekologik madaniyatni oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Biroq jarayonning tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi ayrim kamchiliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda.

Yurtboshimizning "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari va qaror bilan tasdiqlangan konsepsiyasi bu boradagi masalalarni hal etishda dasturiy hujjat bo'ldi.

Konsepsiyada ekologik tarbiyani oiladan va maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlashning belgilanishi bejiz emas albatta. Bolalarning tarbiyasi, ongi

murg'akligidan shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning olgan tarbiyasi kelgusida uning shaxs sifatida shakllanishi uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Endilikda rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim dasturlarini tahlil qilish asosida maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturlari tarbiyalanuvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish va bu borada tarbiya sifatini oshirish nuqtayi nazaridan takomillashtiriladi.

Xususan, tarbiyalanuvchilar uchun ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishga qaratilgan ona tabiatni asrab-avaylash, ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytirish mavzusida tomoshalar va sahna ko'rinishlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Belgilangan aniq talablar asosida ekologik burchaklar tashkil etish ishlari kengaytiriladi. Tabiiy muhit bilan ochiq havoda tanishtiruv soatlari, rasmlar chizdirish, chiqindilarni saralash va



ekologiya bilan bog'liq o'yinlar soni tubdan ko'paytiriladi. Endilikda har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik burchak va yo'lakchalar tashkil etish hamda ularni zarur materiallar bilan ta'minlash choralari ko'riladi.

Konsepsiyada belgilanganidek, kelgusida har yili "Bolalar velomarafoni" o'tkazish maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida yashil transport turini targ'ib qilish bo'yicha barqaror ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

Yana bir e'tiborli jihat, tarbiyalanuvchilar uchun atrof-muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza

qilishga qaratilgan multfilmlar yaratilishi bolajonlar qalbida ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat hissini shakllantirish uchun muhim vosita bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, konsepsiya 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 3,3 million nafar tarbiyalanuvchisida ekologik tarbiyani shakllantirishda hamda maktabgacha ta'lim tizimida yangi bosqichga olib chiqishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Dilnavoz TO'XTAYEVA,
Chilonzor tumanidagi
537-maktabgacha
ta'lim tashkiloti direktori

Xorij armiyasi



AQSH QUROLI KUCHLARINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Amerika Qo'shma Shtatlari Qurolli Kuchlari mamlakat mustaqilligi uchun Britaniya imperiyasiga qarshi urushda xalqni himoya qilish uchun qit'a Kongressi qarori bilan 1775-yilda tashkil etilgan.

AQSh Qurolli Kuchlarining qurilishi hozirgi jahon tendensiyalari va davlatning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga asoslangan. Shu munosabat bilan, so'nggi o'n yilliklardagi AQSh Qurolli Kuchlari dunyoning yetakchi armiyalari reytingida 1-o'rinni egallab kelmoqda. Ushbu davlatning asosiy harbiy doktrinal hujjatlari "AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi", "Milliy mudofaa strategiyasi" va "Milliy harbiy strategiya"dir. Qurolli Kuchlari muntazam va zaxira komponentlardan iborat. Zaxira komponentlari barcha turdagi Qurolli Kuchlar zaxiralarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda AQSh Qurolli Kuchlari quyidagi tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, ular:

- vazifalarni bajarish ko'lamini bo'yicha - umumiy maqsadli kuchlar va strategik kuchlarga;
- turlarga ko'ra - quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari va harbiy-dengiz kuchlariga;
- harakatlarga tayyorgarligi bo'yicha - muntazam qo'shinlar (*kuchlar*) va zaxira komponentlariga;
- hududiy va funksional mo'ljallanishi bo'yicha - geografik hududlarda va global miqyosda harakat qilish uchun mo'ljallangan qo'shinlar (*kuchlar*)ga bo'linadi.

AQSh Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibining umumiy soni 2 mln 170 ming harbiy xizmatchidan iborat.

Ya'ni bu borada dunyo bo'yicha Xitoydan keyin 2-o'rinda turadi.

Umuman olganda, AQSh Qurolli Kuchlarining soni mamlakat aholisining 0,66 foiziga teng, muntazam kuchlarning ulushi aholi sonining 0,39 foiziga yetadi.

Shaxsiy tarkib sonining Qurolli Kuchlarning turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha ulushlarga taqsimlanadi:

- Quruqlikdagi qo'shinlar (QQ) - 38 foiz;
- Harbiy havo kuchlari (HHK) - 23 foiz;
- Harbiy dengiz kuchlari (HDK) dengiz piyodalari bilan - 36 foiz;
- Sohil qo'riqlari - 3 foiz.

Qurolli kuchlarning zaxira komponentlari AQSh Qurolli Kuchlari umumiy sonining 37 foizini tashkil etadi.

AQSh Qurolli Kuchlarini tezkor boshqarish uchun 9 ta birlashgan qo'mondonlik yaratilgan. Ularning tarkibiga Qurolli Kuchlarning barcha turdagi kuchlari va vositalari kiradi.

AQSh strategik kuchlari hujumkor va mudofaa kuchlariga bo'linadi.

Strategik hujumkor kuchlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: yerusti strategik raketa kuchlari; strategik aviatsiya kuchlari (*Harbiy havo kuchlari tarkibida*); harbiy dengiz kuchlari tarkibidagi strategik raketa kuchlari.

Strategik mudofaa kuchlari raketa-yadroviy hujum, kosmik makon nazorati, raketaga qarshi mudofaa kuch va ogohlantirish vositalarini o'z ichiga oladi.

Quruqlikdagi qo'shinlar tashkiliy ravishda uchta asosiy va oltita zonali qo'mondonlik, uchta funksional va 14 ta markazga bo'ysunuvchi qo'mondonliklar (*muassasalar*)ga bo'lingan. Quruqlikdagi qo'shinlarning muntazam kuchlari soni - 476 ming kishi va zaxirasi taxminan 542 ming kishidan iborat bo'lib, mazkur qo'shinlarda yettita armiya shtabi mavjud.

Harbiy havo kuchlari tashkiliy jihatdan 9 ta asosiy qo'mondonlik va 25 ta muassasa, shuningdek qo'mondonlik huquqlariga ega milliy gvardiya harbiy havo kuchlari boshqarmasidan iborat.

Belgilangan maqsadlar va bajariladigan vazifalarning xarakteri bo'yicha Harbiy havo kuchlari yerusti strategik raketa kuchlariga, jangovar va yordamchi aviatsiyaga bo'linadi.

Jangovar harbiy aviatsiya strategik bombardimon aviatsiyasini, taktik va razvedka aviatsiyasini o'z ichiga oladi. Yordamchi aviatsiyaga harbiy-transport, transport-yonilg'i quyish, maxsus kuchlar aviatsiyasi va o'quv aviatsiyalari kiradi. Operatsiyalarni amalga oshirish uchun Harbiy havo kuchlarining jangovar tarkibidan ekspeditsiya aviatsiya tuzilmalari yaratiladi.

AQSh Harbiy dengiz kuchlari flot, dengiz piyodalari va sohil qo'riqlarini o'z ichiga oladi.

Tashkiliy jihatdan harbiy dengiz kuchlari quyidagilarga bo'linadi: markazga bo'ysunuvchi asosiy qo'mondonliklar - 6 ta; flotlararo qo'mondonlik - 2 ta; Tinch okeani flotiga bo'ysundirilgan mintaqaviy qo'mondonlik - 3 ta; markazga bo'ysunuvchi flotlararo qo'mondonlik - 4 ta; sohil qo'mondonliklari - 11 ta.

Harbiy dengiz kuchlari mo'ljallanishiga ko'ra umumiy maqsadli va strategik kuchlarga bo'linadi.

AQSh strategik kuchlarining rivojlanishi, "Global zarba" operativ-strategik konsepsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiyaning mohiyati yadro va an'anaviy qurol tizimlari yoki kompyuter tarmoqlari hujumlari, shu jumladan vayron qilmaydigan mag'lubiyat usullari yordamida dunyoning istalgan nuqtasidagi dushmanning muhim turg'un va mobil obyektlarini tezda mag'lub etishdir.

Umumiy maqsadli kuchlarni isloh qilish ikki parallel yo'nalishda amalga oshirilmoqda: tashkiliy-funksional va texnik.

Shu bilan birga, muddati 30 yilga mo'ljallangan quruqlikdagi qo'shinlarni isloh qilishning yakuniy maqsadi - sifat jihatidan yangi turdagi quyidagi tuzilmalarni yaratishdir:

- ekspeditsiya yo'nalishiga ega tashkiliy-shtat tuzilmasi;

- istiqbolli qurol-yarog', aloqa, razvedka va boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan tuzilma;

- dunyoning istalgan mintaqalarida vazifalarni samarali bajara oladigan va zudlik bilan yoyilishga qodir tuzilma.

AQSh quruqlikdagi qo'shinlarni tubdan isloh qilishning texnik yo'nalishi "Kelajak jangovar texnikasi" dasturi orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur dastur doirasida qo'shinlar va qurol-yarog'larni, jangovar zirhli mashinalarning yangi oilasini, ko'p maqsadli masofadan boshqariladigan mashinalarni, dronlarni, piyodalar jangovar kompleksini va boshqa qurolli kurash vositalarini boshqarishning raqamli tarmoq tizimini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Harbiy havo kuchlarining qurilishi "Global hushyorlik", "Global erishish" va "Global qudrat" konseptual hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu hujjatlar havo kuchlarini qurishning oltita asosiy tamoyilini belgilaydi:

- havoda va kosmosda hukmronlik;
- globallikka erishish;
- yuqori global mobillik;
- yuqori aniqlikdagi kurash (*jang*);
- axborot ustunligi;
- moslashuvchan jangovar ta'minot.

Harbiy havo kuchlarini rivojlantirishning texnik yo'nalishi istiqbolli aviatsiya tizimlari, jumladan, beshinchi avlod ko'zga ko'rinmaydigan qiruvchi samolyotlar va turli xil uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

AQSh Harbiy dengiz kuchlarining qurilishi "Dengiz quvvati - 21", "Harbiy dengiz kuchlari faoliyati", "Minginchil flot" va "Global qatnashuv" kabi asosiy konseptual hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shu hujjatlariga ko'ra, Amerika flotining kema tarkibi 55 ta yangi zamonaviy qirg'oq kemalari qabul qilinishi hisobiga 1,5 barobarga ko'paydi.

Bundan tashqari, mobil okean platformasi va 3 turdagi ta'minlovchi jami 21 ta kema ishlab chiqilmoqda.

Umuman olganda, AQSh Qurolli Kuchlarini rivojlantirish chora-tadbirlari doirasida bugungi kunda AQShda ilmiy-tadqiqot prognozlarini, tajriba-konstruktorlik ishlarini, qurolli kuchlar, ularning turlari hamda qo'shin turlarini qurish, ularni rivojlantirish rejalari va dasturlarini amalga oshirish doirasida chuqur ilmiy tadqiqotlar, tajribalar hamda zamonaviy harbiy tahdidlarga javob bera oladigan Qurolli Kuchlarni yaratish, rivojlantirish ishlari keng amalga oshirilmoqda.

Polkovnik Rustam XALILOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
fakultet boshlig'i, dotsent

O'tmish tajribasi

Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari tomonidan barpo etilgan qudratli saltanat nafaqat o'zining mislsiz bunyodkorlik ishlari, ilm-fan va san'at homiyligi, balki yuksak darajada tashkillashtirilgan harbiy qudrati bilan ham ajralib turadi. Bu chog' harbiy san'ati ko'plab omillarni, jumladan harbiy tadbir va usullar, qurol-yarog'lar, qo'shin tuzilmasi va jangovar ruhni o'z ichiga olgan bo'lib, shunday muhim tarkibiy qismlardan biri – harbiy cholg'uchilik san'ati edi. Temuriylar qo'shinining jang maydonlaridagi salobati, yurishlar paytidagi tartib-intizomi hamda g'alabalardan keyingi tantanalarida harbiy musiqa va uning ijrochilari – cholg'uchilar muhim o'rin tutgan.



Temuriylar davri

o'zbek harbiy cholg'uchiligi

jaranglashi dushman tarafda qo'shinining son jihatdan ko'pligi va yaxshi tashkillashtirilganligi haqida taassurot uyg'otgan.

Milliy va harbiy o'zlikni anglash

Milliy cholg'u asboblari yordamida yangragan sadolar askarlarda vatanparvarlik hissinini oshirishga xizmat qilgan. Turkiy xalqlarning azaldan o'z milliy cholg'uchilik maktablari bo'lib, barcha turkiy sulolalar harbiy yurishlarda muntazam tarzda bundan foydalanib kelganlar.

Amir Temur ham harbiy cholg'u asboblari bilan jang maydonida va undan tashqarida mohirlik bilan foydalangan. **Amir Temur tarixda birinchilardan bo'lib, jasorat ko'rsatgan askarlarni maxsus cholg'u asboblari bilan taqdirlashni harbiy odat tusiga kiritadi.** "Temur tuzuklari"da bu borada quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan:

"Biz farmon qildikki, agar biror amir biror mamlakatni zabt etsa yoki dushman qo'shinini mag'lub qilsa, unga uch xil imtiyoz berilsin: faxrli unvon, tug' va nog'ora topshirilib, u bahodir deb e'lon qilinsin. Misol tariqasida, Dashti Qipchoqqa O'rusxonga qarshi jang qilish uchun yuborilgan amirimiz Iygu Temur g'alaba qozonib qaytgach, uni taqdirlab, tuman (qo'shin), tug', bayroq va nog'ora in'om etdik".

Temuriylarda cholg'u asboblari harbiy darajani belgilaydigan ramz sifatida ham foydalanilgan. Ayniqsa, zarbli cholg'ularga alohida ahamiyat berilgan. Mazkur holat "Temur tuzuklari"da o'z ifodasini topgan. Hujjatda keltirilishicha, o'n ikki nafar oliy martabali amirning har biriga bittadan bayroq va nog'ora in'om etilgan. Amir ul-umaro esa bayroq va nog'ora bilan bir qatorda, tuman tug'i va chortug' bilan ham taqdirlangan. Mingboshilarga bir tug' va karnay berilgan bo'lsa, yuzboshi va o'nboshilarga beshtadan katta nog'ora topshirilgan. Aymoq amirlariga bittadan burg'u taqdim etilgan. To'rt nafar

beklarbegi esa bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u kabi harbiy ramzlarning to'liq majmuasi bilan siylangan.

TEMURIYLAR CHOG'IDA

harbiy harakatlarda asosan ko's (nog'oraning turlaridan biri), nog'ora, dovul (gardishining ikki tomoniga teri qoplangan katta shakldagi urma cholg'u. Tovushi uchi yumaloq tayoqcha yordamida hosil qilinadi), karnay, burg'u (karnayning bir xili, kovak shox shaklida bo'lgan), surnay, nafir (pastdan yuqoriga kengayib boruvchi shox, bronza yoki kumushdan yasalgan nay) kabi cholg'u asboblari foydalanilgan. Har bir jangda cholg'u asboblari bo'lishi va ulardan foydalanish tartibi haqida ko'plab tarixiy manbalarda ma'lumot mavjud. Harbiy cholg'uchilar guruhiga qo'shinining ajralmas qismi sifatida qaralgan.

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida Rumga qarshi yurishda **40 ming** askar bilan birgalikda yana shuncha karnay, nog'ora cholg'uchilari va **4 ming** nafar hofizlar ham jalb qilingani qayd qilingan. Bu holat Amir Temurning cholg'ularning o'ziga xos sadolaridan harbiy maqsad uchun ham mohirona foydalanilganligini anglatadi.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida harbiy yurishlarda cholg'u asboblari foydalanish holatlari ko'p bor ta'kidlangan. Bunga yorqin misol sifatida 1393-yilda Sohibqiron lashkarlarining Sheroz hududiga qilgan yurishini keltirish mumkin. "Zafarnoma"da tasvirlanishicha, **jang boshlanishi bilan chalingan karnay va nog'oralarning gumburlagan, quloqlarni qomatga keltiruvchi ovozi dushman askarlari orasida katta sarosima va parokandalik keltirib chiqargan, ularning jangovar tartibini izdan chiqargan.** To'xtamishxon, Boyazid bilan bo'lgan janglarda ham nog'ora va karnay tovushlar tog'larni va dashtlarni larzaga solib,

quloqni qomatga keltirgani bayon qilingan. Boyazid bilan jang boshlanishidan oldin karnay, nog'ora, burg'u va boshqa cholg'u asboblarning ovozi butun olamni tutganligi ham manbalarda qayd etilgan.

1399-yilda Amir Temurning Hindistonga yurishida Roy Ratan ismli shaxs Temur qo'shiniga qarshi jang qilish uchun askarlar to'playdi. Temur o'z askarlariga keng maydon bo'ylab bir safga tizilishni, ko'plab katta gulxanlar yoqishni va bir vaqtning o'zida karnay, nog'ora kabi zarbli va damli cholg'ularni imkon qadar baland ovozda, davomli va vahima uyg'otadigan tarzda chalishni buyuradi. Bu harakatlar natijasida kechasi osmonga urilayotgan alangalar yog'dusi va quloqlarni qomatga keltiruvchi gumburlagan musiqiy sadolarning qo'shilmasidan iborat g'ayrioddiy va qo'rqinchli manzara yuzaga keladi.

BU HOLAT Roy Ratan askarlariga qattiq ruhiy zarba beradi. Manbalarda ta'kidlanishicha, dushman taraf bu dahshatli tomosha va ovozlardan shu qadar vahimaga tushganki, ularning vujudlari larzaga kelib, jang qilishga bo'lgan har qanday iroda va jur'atlarini yo'qotadilar. Natijada, ular jangga kirishdan bosh tortib, tartibsiz ravishda qochishga majbur bo'ladilar.

Umuman olganda esa barcha turkiy sulolalarda bo'lgani kabi temuriylarda ham o'ziga xos milliy cholg'uchilik maktabi bo'lib, bu odat asrlar davomida turkiy sulolalarga meros tarzida o'tib kelgan. O'zbek davlatchiligida muhim o'rin tutgan temuriylar sulolasi chog'ida esa harbiy cholg'uchilik yanada yuksalib, o'z ilg'orligi bilan ajralib turgan. O'z davrining barcha yutuqlaridan oqilona foydalangan Amir Temur, bu borada ham zamondoshlaridan bir pog'ona yuqorida turgan.

Ulug'bek OLIMOV,
Tarix instituti
kichik ilmiy xodimi



maydonida o'z bo'linmalarini tanib olishga yordam bergan.

Jangovar ruhni ko'tarish

Musiqa askarlarning ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularda jasorat, vatanparvarlik, birdamlik hissinini uyg'otgan. Qo'rquvni yengishga, charchoqni unutishga va g'alabaga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tartib va intizom

Cholg'u asboblari ovozlarini maromda qadam tashlashini, safni to'g'ri ushlashini va harakatlarni muvofiqlashtirishni ta'minlagan. Bu nafaqat jang maydonida, balki harbiy yurishlar va mashg'ulotlar paytida ham muhim bo'lgan. Ayniqsa, piyoda qo'shinlarning tartibli harakati uchun nog'ora va dovul ovozlari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Cholg'u asboblari ovozlariga aniq va tezkor javob berish talabi askarlarda intizomni shakllantirgan va buyruqlarni so'zsiz bajarish ko'nikmasini rivojlantirgan.

Dushmanni sarosimaga solish

Baland va vahimali cholg'u sadolari dushman askarlarida qo'rquv, sarosima va tartibsizlik keltirib chiqargan. Ko'p sonli cholg'u asboblari birgalikda



Jang maydonida cholg'u asboblari foydalanish, shunchaki madaniy yoki kundalik an'ana emas, balki chuqur o'ylangan tadbir, ruhiy va tashkiliy ahamiyatga ega bo'lgan zarurat hisoblangan. Ularning asosiy vazifalarini quyidagi yo'nalishlarda tizimlashtirish mumkin:

Ishora va aloqa vositasi

Jang maydonidagi shovqinning yuqoriligi va masofaning uzoqligi sharoitida askarlarga buyruqlarni tez va aniq yetkazishning eng samarali usullaridan biri cholg'u ovozlari bo'lgan. Hujumni kuchaytirish, safni qayta tuzish yoki chekinish, shular jumlasidandir. Nog'ora, surnay, karnay, dovul, sur va boshqa jarangdor ovozlari cholg'ular – bu vazifani bajarish uchun maxsus ishlatilgan. Muayyan harbiy qism yoki bo'linmaning o'ziga xos musiqiy chaqirig'i yoki ovozi bo'lgan, bu esa jang

Nuqtayi nazar

HAR BIR INSON



MILLATNING YUZI BO'LADI

Har kuni ko'chada jamiyatning bir qismi sifatida faoliyat yuritamiz. Turli xil insonlarga duch kelamiz. Har bir shaxsning o'ziga yarasha xatti-harakati va so'zlashuv odobi bor. Ayrim insonlarning muomalasi atrofdagilarning e'tiborini tortadi. Insonlar qanchalik individual bo'lishiga qaramay, jamiyat ichida o'zini tutish, gapirish, yurish-turish va kulish odoblariga amal qilishi kerak.

Hech e'tibor berganmisiz, jamoat transportida baland ovozda suhbatlashib, qo'llarini urishtirib, qattiq kulishib yuradiganlar boshqalarning g'ashiga tegadi. Ba'zilar, atrofida ko'pchilik bo'lishiga qaramay, haqoratli so'zlarni ishlatadi. Kattalar va imkoniyati cheklanganlarga joy bermasdan, ko'rmaganga olib telefonidan ko'z uzmaydi. Bu kabi holatga har birimiz ko'p marta guvoh bo'lganmiz. Ammo shunday vaziyatda qanday yo'l tutishni bilmaymiz. Kam sonli insonlarga bunday yoshlarga tanbeh berib o'tishi mumkin, xolos.

Bugungi kunda yoshlarning shunday shakllanib borishida ijtimoiy tarmoqlarning ham roli katta. Chunki ularning Instagram, Telegram, Facebook va YouTube kabi tarmoqlarda

madaniyatimizga to'g'ri kelmaydigan videolarni ko'rishi natijasida, ayrim harakatlar "trend" bo'lmoqda. Misol sifatida mashina yurib ketayotgan paytda, haydovchi o'ng tomonidagi eshikni ochib, sherigining ko'chada raqsga tushayotganini videoga olgan "trend"ni olaylik. Shu vaziyatda haydovchining yo'lidan kimdir chiqib qolsa, uning e'tiborsizligi natijasida mudhish hodisa yuz bermaydi, deb kim ayta oladi?

Yoki o'zini blogger deb atovchi yigitcha tug'ilgan kunda ko'pchilikning yonida onasining yuziga tort chaplagan videoni aytmayisizmi?! Bechora ona boshqalar oldida farzandining qilgan bu qilg'idan uyalib, unga qilingan hurmatsizlikdan ko'ngli g'ash tortgani yuzidan bilinib turardi. Vaholanki, bunday harakatlar madaniyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlar. Chunki Sharq mamlakatlarida ota-ona ulug'lanadi, bu buyuk zotlarga hurmatsizlik qilish u yoqda tursin, qattiq gapirish, ko'zlariga tik qarash ham mumkin emas. Bu haqda muqaddas kitoblarda juda ko'p ibratli pand-nasihatlar keltirilgan. Afsuski, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lish ilinji ko'pchilik yoshlarning ko'zini ko'r qilib qo'yayotgani bor haqiqat. Chunki ular obunachi yig'ib, layk to'plash yo'lida ota-onadan ham, yaqinlaridan ham qabihlik bilan foydalanyapti...

Shu o'rinda jamoat joylarida chekadigan, haqoratli so'zlar ishlatadigan, chiqindilarni yo'lakka tashlab ketadiganlar haqida ham aytib o'tsak. Biz ko'chada harakatlanar ekanmiz, qilayotgan ishlarimiz boshqalar sog'lig'iga, tinchligiga va xotirjamligiga xalaqit qilmasligi kerak. Chunki jamoat joyida boshqalarning shaxsiy hududiga hurmat bilan qarash muhim. U yerda shovqin chiqarish, baland gapirish yoki qo'pol harakatlar qilish nojo'ya

hisoblanadi. Chunki atrofda keksha yoshdagilar va betoblar bo'lishi mumkin. Bu harakatlar esa ularga, avvalo ularning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi, shu bilan birga ularga nisbatan hurmatsizlik bo'ladi.

Ko'cha madaniyati yo'l qoidalaridan foydalanayotganda ham yaqqol seziladi. Piyodalar uchun mo'ljallanmagan joydan o'tish yoki svetofo yonmasidan oldin yugurib ketish holatlari nafaqat haydovchilarga nisbatan, balki yo'lovchining o'ziga ham hurmatsiz ekanligini namoyon qiladi. Shuningdek, piyodalar o'tish yo'lagida ketayotganda telefonga chalg'imag, atrofga e'tibor berib harakatlanish ham, xavfsizlik uchun muhim. Lekin ko'pchilik yurtdoshlarimiz bu haqda bilmaydi, yoki bilsa ham ko'pam e'tibor qilmaydi. Bu esa juda yomon holat.

Odobli va toza kiyinish, shuningdek boshqalarni bezovta qilmaydigan ko'rinishda bo'lish ham, madaniyatning birinchi belgisi sanaladi. Tushunarli tilda aytadigan bo'lsak, kiyinish – bu faqat insonning tashqi qiyofasi emas, balki uning dunyoqarashi, ta'bi, madaniyati, hatto tarbiyasidan dalolat beradigan muhim jihat. Shuning uchun odobli ko'rinishda bo'lish har bir inson uchun nafaqat shaxsiy, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat hamdir. Afsuski, hozirgi kunda milliy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan kiyinish usullarining yoshlar orasida ommalashayotgani kishini o'ylantirmay qo'ymaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yarim-yalang'och obrazlar, tor va kalta kiyimlarda ko'chada yurishlar – jamiyatimizning axloqiy yuziga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu holatni modadan qolmaslik, erkinlik, zamonaviylik deb qabul qilayotganlar, aslida madaniyat tushunchasining asl mohiyatidan ancha uzoqlashib ketganini anglamaydi.

To'g'ri, har bir inson o'z xohishicha kiyinish huquqiga ega. Biroq bu huquq boshqalarning huquq va qadriyatlariga daxl qilmasligi lozim. Jamoat joylarida insonning tashqi ko'rinishi nafaqat shaxsiy tanlov, balki umumiy axloq normalari bilan ham hisoblashishi shart. Agar insonning kiyinish tarzi atrofdagilarda norozilik, bezovtalik, hatto nafrat uyg'otsa, bu yerda erkinlik emas, madaniyatsizlik ustuvorlik qilayotgan bo'ladi. Bizning xalqimiz azaldan odob, hayo va tozalikni oliy qadriyat sifatida ko'rgan. Bu qadriyatlar nafaqat diniy, balki milliy ma'naviy asoslarga ham borib taqaladi. O'zbek ayoli va qizining kiyinish madaniyatida hamisha nafosat, salohiyat va hurmat hissi ustuvor bo'lgan. Shu bois ham bugungi kunda modaning yolg'on namunasiga ergashib, milliylikdan, hayo va ibodat voz kechish nafaqat o'z shaxsiyatini, balki butun millat sha'nini pastga uradi.

Qani edi shunday kiyinib ko'chada yurgan, yoki ijtimoiy tarmoqlarga yarim-yalang'och kiyimda video joylayotgan yoshlar buni tushunsa edi.

Biroq "trend"larning yaxshi tomonlari ham bor. Masalan, davlatimiz tomonidan "Juma – milliy liboslar kuni" deb belgilanishi ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilindi. Natijada, ushbu xayrli tashabbus sabab yoshi kattalar va muhimi, yoshlar o'rtasida milliy liboslarni kiyish ommalashdi. Atlas va adrasdan milliylik hamda zamonaviylikni uyg'unlashtirgan turli xil yangi fasondagi kiyimlarni nafaqat to'y va bayramlarda, balki kundalik hayotda ham kiyish urfga kirmoqda. Turli dizaynerlar va tadbirkorlar tomonidan atlas, adras, shoyi kabi milliy matolarga zamonaviy dizayn nafasi bag'ishlanmoqda. Bu orqali milliylik nafaqat saqlab qolinmoqda, balki yangi avlodga zamonaviy uslubda yetkazilmoqda.

Ijoiy tendensiya sifatida, maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy liboslarda darslarga kelishni qo'llab-quvvatlash ommalashdi. Bu esa yoshlarda milliy iftixorni uyg'otish, o'zligini anglash, moda orqali ma'naviyatni targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatning yuzi – bu faqat shahar ko'chalari yoki binolarining ko'rinishi emas, balki u yerda yashovchi insonlarning qalbi, ma'naviyati, muomalasi, kiyinishi va jamoatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Agar bir millatning har bir a'zosi odob-axloq me'yorlarini hayot qoidasiga aylantirsa, bunday jamiyat har qancha zamonlar o'tsa ham, o'z yuzini yo'qotmaydi, qadriyatlarini saqlab qoladi. Unutmashimiz kerakki, yoshlar qanday kiyinadi, qanday so'zlaydi, qanday video tarqatadi – bularning barchasi butun millatning madaniyatini aks ettiradi. Shu bois har bir yosh bugungi harakati bilan faqat o'zini emas, balki yurti va kelajak avlod oldida javobgar ekanini unutmasligi lozim.

Zulfizar SAIDAHMADOVA,
O'ZDJTU talabasi

Vatanparvarlik



Xotiralar qalbda porlaydi

Shunday ulug' maqsad yo'lida jon bergan qahramonlar orasida sirdaryolik ikki shunqor – Elomon Otajonov va Alisher Salimov ham bor edi. Ayni navqiron yoshida ota-ona umidini, el-yurt ishonchini oqlashga jazm qilib, o'sha shiddatli janglarda o'z hayotlarini fido qildi. Ha, ular qo'lida qurol, ko'nglida Vatan muhabbati bilan dushmanga qarshi ayovsiz kurashdi. Chunki ular uchun Vatan – muqaddas, xalqning osoyishtaligi – eng oliy burch edi. Shuning uchun ham ularning nomi bugun tarix sahifasida yorqin nom bilan yozilgan. Demakki, bu buyuk maqsad yo'lida shahid ketgan yigitlarning ismi, ularning qahramonlik daftarida bitilgan hayoti bugungi va ertangi avlod uchun ibrat maktabidir.

Shu maqsadda Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi 5-umumta'lim maktabida "Qahramonlar nomi barhayot" nomli tadbir tashkil etildi. Unga yuqori sinf o'quvchilari jalb etildi. Tadbirda maktab direktorining o'rinbosari Muhiddin Boymurodov, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari Shuhrat Begmatov hamda ona tili fani o'qituvchisi Dildora Xoligova so'zga



chiqib, Sariosiyo va Uzun tumanlarida yurtimizga g'arazli maqsadlarda suqilib kirgan jangarilarga qarshi mardonavor kurashgan o'g'lonlarning shijoati, jasorati haqida so'zlashdi. Bu yo'lida aziz jonidan kechgan marhumlar el-yurt xotirasidan o'chmasligini, zero ular fidoyilik va yurtparvarlikning yorqin ramzi, millat tafakkurida hamisha barhayot ekanini e'tirof etdi.

Aslida bunday tadbirlar faqat rasmiyatchilik uchun emas balki yosh avlodning qalbida Vatanga muhabbatini shakllantirish, ularga yurt himoyasi uchun jonini bergan fidoyilarning jasoratini doim namuna sifatida yetkazish uchun o'tkaziladi. Shunday tarbiya topgan yoshlar esa kelajakda faqat ilm-ma'rifatli emas, balki vatanparvar, el dardi bilan yashaydigan mas'uliyatli insonlar bo'lib shakllanadi. Ular qahramonlarning yo'lini, ularning fazilatini ma'naviy meros sifatida qabul qiladi va fidoyilikni faqat so'zda emas, amalda namoyon etadi. Biz ustozlar uchun muhimi shu.

Mehriniso MAMATQULOVA,
oliy toifali o'qituvchi

Vatan – har bir inson uchun muqaddas va eng aziz. Uning finchligi, osoyishtaligi uchun jasorat va fidoyilik ko'rsatish haqiqiy qahramonlarning orzu va maqsadi bo'ladi. 2000-yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida sodir bo'lgan janglarda jasorat bilan yuzma-yuz kelgan, bu yo'lida aziz jonini nisor qilgan qahramonlarning mardligi bugun tillarda doston. To'g'ri, vaqt o'tishi bilan ko'p narsa o'zgarishi mumkin, ammo qahramonlar nomi – abadiy. Ularning ismlari qalblarimizda yashaydi, xotiramizdan o'chmaydi. Zotan, yurtning asl farzandlarining jasorati, fidoyiligi va Vatanga bo'lgan muhabbati har doim yosh avlod uchun so'nmas mayoqdir.

Qo'mondon va yoshlar

SERMAZMUN

uchrashuv



Toshkent harbiy okrugi qo'shinlar qo'mondoni Chirchiq shahridagi mahalla yoshlari va yuqori sinf o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazdi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida harbiy kasb nufuzini yanada oshirish, orzu-umidlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan uchrashuv taassurotlarga boy va sermazmun bo'ldi.

Uchrashuv samimiy va do'stona ruhda o'tdi. Muloqot davomida qo'mondon yoshlarga milliy armiyamizdagi o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy harbiy ta'lim muassasalari haqida, shuningdek harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik xususida gapirib berdi. Shu bilan birga harbiy xizmatchilarning jahon maydonlarida qo'lga kiritayotgan ulkan yutuq va muvaffaqiyatlari haqida ma'lumot berdi. Shu asnoda yoshlarning maqsadlari bilan qiziqdi. Ularga to'g'ri yo'l-yo'riq berdi.

Shuningdek, ilmiy yoshlarning salohiyatini yuksaltirish, tashabbusini qo'llab-quvvatlash ham e'tibordan chetda qolmadi. Muhimi, har bir inson

kelajakda qaysi kasb yoki hunarni tanlamasin, bu yo'lida uchraydigan har qanday to'siq va dovonni mardonavor yengib o'tishda o'zida kuch va iroda topishi kerakligi ta'kidlandi.

Yakunda uchrashuvda faol ishtirok etgan bir guruh yoshlarga okrug qo'mondonligi hamda Yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan qo'ljangi sahnasi, faxriy qorovulning saf chiqishlari hamda harbiy orkestrning konsert dasturlari barchaga xush kayfiyat bag'ishladi.

Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati

Imtiyoz

Kelajak uchun muhim qadam

Joylarda mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan, jangovar xizmat faoliyatida ijobiy natijalarga erishgan, o'z kasbiga sodiq, malakali va intizomli harbiy xizmatchilarning farzandlariga respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlariga imtiyoz beradigan tavsiyanomalar topshirilmoqda.

Jumladan, Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikda Toshkent shahri va viloyatida xizmat qilayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarning farzandlariga ham imtiyozli tavsiyanomalar tantanali ravishda berildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar, imtiyozni qo'lga kiritgan barcha yoshlarga kelgusida ulkan zafarlar tiladi. Shu bilan birga mamlakatimizda yoshlarga oid amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ahamiyati, Qurolli Kuchlar tizimida, xususan Mudofaa vazirligi miqyosida harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish



borasida qilinayotgan izchil chora-tadbirlar xususida batafsil fikr yuritishdi.

Bu kabi imkoniyatlar davlatimiz tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga nisbatan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yana bir namunasi ekanini e'tirof etishdi.

Taniqli san'atkorlarning Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari tadbirga yanada ko'tarinki ruh baxsh etdi.

Shahnoza SULTANOVA
TOQQQ matbuot xizmati



Hisobot

BIRINCHI CHORAK
YAKUNLARI TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov boshchiligidagi tashkilotning 2025-yil birinchi chorak yakunlariga bag'ishlangan hisobot yig'ilishi o'tkazildi.

Tashkilot markaziy kengashi apparati, hududiy kengashlar hamda tizimdagi muassasalar rahbarlari va xodimlari ishtirokida videoselektor shaklida o'tgan ushbu yig'ilish tanqidiy-tahliliy ruhda kechdi.

Yig'ilishda tizimdagi tashkilotlar tomonidan aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda moliya-xo'jalik yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi.

Tahlillardan kelib chiqib, "Vatanparvar" tashkiloti faoliyatining barcha yo'nalishlarida Xorazm, Sirdaryo va Buxoro viloyatlari hamda Toshkent shahar kengashlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar namunali deb topildi. O'z faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'yayotgan hududiy kengashlar va ularning tasarrufidagi muassasalar ogohlantirildi.

Yig'ilish yakunida yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Imkoniyat

YANGI O'QUV
KURSI TASHKIL ETILDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Navoiy viloyati kengashi tasarrufidagi Karmana tumani o'quv sport-texnika klubida xorij mehnat bozorida ishlash istagida bo'lgan haydovchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'quv kursi tashkil etildi.

"Vatanparvar" tashkiloti hamda "Swift Road Transport Academy" va "The Kasb xususiy bandlik agentligi" MChJlari o'rtasida imzolangan o'zaro hamkorlik me'morandumiga binoan tashkil etilgan ushbu kursda Yevropada yuk va yo'lovchi tashuvchi haydovchi sifatida ishlash istagidagi o'zbekistonlik fuqarolar "KOD-95", "ADR" va "Taxograf chip kartochkalari" bo'yicha o'qitilishi belgilangan.

Shuningdek, "Swift Road Transport Academy" MChJ tomonidan haydovchilar Yevropa ish muhitiga tez moslashishi uchun rus va ingliz tillari bo'yicha maxsus o'quv moduli ham joriy etilgan. Bu modul orqali haydovchilar Yevropa logistika kompaniyalari vakillari bilan muloqot qilish, ish joyida xavfsizlik qoidalariga rioya etish va hujjat ishlarini yuritish uchun zarur bo'lgan asosiy til ko'nikmalarini egallaydilar.

Uchrashuvda tomonlar mazkur o'quv kursida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni Yevropa Ittifoqi talablariga mos ravishda tashkil etish masalalari hamda loyiha davomida tashrif buyuruvchilar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasasi va avtodoromida haydovchilarni tayyorlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

Kursni muvaffaqiyatli yakunlagan haydovchilar xorijdagi ish beruvchi kompaniyalarga yo'naltiriladi. Kelgusida bunday o'quv kurslari respublikamizning boshqa hududlarida ham tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Musobaqa

Kuchlilar sinaldi

Yoshlar o'rtasida sportni va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish masalasi bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Bu borada Guliston harbiy prokuraturasi tomonidan olis hudud hisoblangan Bekobod tumanida "Harbiy prokuror kubogi" uchun mini futbol bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Unda tumandagi 44-, 45-, 46-, 47- va 48-umumta'lim maktablari o'quvchilaridan iborat terma jamoalar to'p surdi. Qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tgan bahslar yakunida sovrindorlar medal, faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlandi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan 46-umumta'lim maktabi terma jamoasiga "Harbiy prokuror kubogi" tantanali ravishda topshirildi.

Adliya podpolkovnigi Farrux DJUMAYEV,
Guliston harbiy prokurori

Muloqot

Muqaddas dargoh

Oila – muqaddas qo'rg'on. Uning mustahkamligi er va xotinning ahil-inoqligiga bog'liq. Farzandlar kamoloti, turmushdagi osoyishtalik va xotirjamlikni o'ylagan har bir er va xotin oilaga alohida e'tibor qaratadi. Zotan, oiladagi totuvlik zahirida jamiyatning tinchligi mujassam.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, u jamiyat va davlat muhofazasida ekani, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi nazarda tutilgan.

Xalqaro oila kuni munosabati bilan Nukus harbiy prokuraturasi va shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDY) bo'limi hamkorligida Qoraqalpog'iston Respublikasi favqulodda vaziyatlar boshqarmasida o'tkazilgan ochiq muloqotda ayni shu fikrlar bildirildi.

Unda, shuningdek gender tenglikni ta'minlash masalalari, oilalarda sog'lom muhitni barqaror saqlashda e'tibor qaratiladigan muhim jihatlar hamda FHDYO bo'limlarida ko'rsatiladigan davlat xizmatlari haqida tushunchalar berib o'tildi.

Adliya leytenanti Faxriddin MATCHANOV,
Nukus harbiy prokuraturasi tergovchisi

Jarayon

Tegishli ko'rsatmalar
berildi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent viloyatidagi harbiy tuzilmalarda o'rganishlar olib borilmoqda.

Xususan, IIV Qorovul qo'shinlari tizimidagi harbiy qismlarning biriga qarashli hududda amalga oshirilayotgan qurilish ishlari o'rganildi.

Asnoda byudjet mablag'lari iqtisod qilinishi, ishlarning shartnomada belgilangan muddatda bajarilishi, tegishli qonunchilik talablari, shu jumladan texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi masalalariga, shuningdek qurilish jarayonida energiya tejamkorligini ta'minlash, energoresurslardan maqsadli va unumli foydalanish masalalariga alohida urg'u berildi.

Yakunda, o'rganilgan masalalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Profilaktika

O'rganishlar davom
etmoqda

Navoiy harbiy prokuraturasi tomonidan Konimex tumani favqulodda vaziyatlar bo'limida o'rganishlar olib borildi.

Unda xizmat o'talishi, shaxsiy tarkib va maxsus texnikalar shayligi va boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Jarayonda energiya tejamkorligini ta'minlash, harbiylar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasi, shu bilan birga, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijalariga va faoliyatga doir boshqa masalalarga ahamiyat berildi.

Harbiy xizmatchilar bilan muloqot o'tkazilib, ularning muammolari o'rganildi. So'ngra, shaxsiy tarkib bilan huquqiy targ'ibot-profilaktika tadbiri tashkil etildi.

Adliya leytenanti Hazratbek YARASHBAYEV,
Navoiy harbiy prokurorining yordamchisi

A group of students and military personnel are gathered in a classroom. Several students are seated at a long table, while others stand behind them. A man in a white shirt and a woman in a dark uniform are standing at the front of the room. The room has blue walls, posters, and flags.



Ayni paytda klubda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham bugungi kun talabi asosida tashkil etilgan. Shu kunlarda bu yerda "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Bo'lajak haydovchilarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishi uchun yangi zamonaviy rusumdagi o'quv-mashq avtomobillari olib kelindi. Sinfxonalar talab darajasida jihozlanib, o'quv mashg'ulotlari malakali mutaxassislar tomonidan olib borilmoqda. Bu esa klubda haydovchilar tayyorlash jarayoni samarali tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

Akbar ALLAMURODOV

Mulohaza

“Mualliflar unutgan janr

yoxud “LAVHA” haqida ikki og‘iz so‘z”



“Badiiy publitsistik janrlar” da insonlarning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali ma’lumot yetkaziladi. Badiiy vositalardan foydalangan holda, jurnalistik matnlar yaratiladi.

Turkumga ocherk, badia, pamflet, lavha, xat singari janrlar kiritilgan. “Bosma OAVda janrlar va mahorat masalalari” kitobida negadir “lavha” to‘g‘risida lom-mim deyilmagan. 2018-yili “Iqtisod-moliya” nashriyotida chop etilgan “Jurnalistikaga kirish” o‘quv qo‘llanmasida “lavha” janri to‘g‘risida nisbatan to‘liqroq ma’lumot berilgan. Xususan, darslikning “Jurnalistikaga oid ba’zi atamalar lug‘ati” bo‘limida “lavha”, “ocherk” janrining kichik shakli ekanligi ta’kidlangan.

Informatsion dasturlarda boshlovchining “tafsilotlar bilan muxbirimiz lavhasida tanishasiz”, degan gapini ko‘p eshitganmiz.

Efira uzatilayotgan materialning qaysi janrga taalluqli ekanligi bilan hisoblashmay turib, “lavha” tamg‘asining bosilishiga-ku o‘rganib qoldik. Xo‘sh, mazkur janrning o‘ziga xosliklari nimada? “Reportaj” yoki “xabar”dan ajratib turuvchi qanday jihatlari bor?

To‘lqin Qozoqboyev va Muxtor Xudoyqulov hammuallifligida nashr etilgan kitob asnosida yuqoridagi savollarga javob topishga urinib ko‘ramiz!

249-betga qaraymiz: “Lavha” arabcha so‘z ekanligi, “taxtacha”, “ko‘rinish”, “manzara” ma’nolarini anglatishi keltirilgan. Publitsistikaning kichik janrlaridan biri bo‘lgan “lavha” asliyatdan

axboriy (ya’ni muayyan voqea-hodisa haqida ma’lumot beruvchi) janrlar sirasiga kirishi aytilgan.

“LAVHA”ning o‘ziga xosliklari nimalarda?

Ro‘y bergan voqelik haqida xabar berish, uni o‘quvchiga tanishtirishga xizmat qiladi. Xabar janridan farqli o‘laroq, vaziyat, jarayon, holatning mohiyati, “mag‘zi”ni ochib berishga – tasvirlashga intiladi. Ma’lum bir ko‘rinishni, kishilik jamiyati vakillarining faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanitirish, tasavvurini uyg‘otishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham, “lavha” janrida ayrim badiiy va tasviriy vositalar (masalan, tabiat manzaralari, inson faoliyati, mehnati, izlanishlari, kezi kelganda, qiyofasi va h.k.)dan foydalaniladi.

Ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, namuna qilib ko‘rsatsa, arziydigan voqea va hodisalarni, insoniyatning yaratuvchanlik qobiliyati, samarali mehnati, erishgan yutuqlarini yoritish, tasvirlash holatlari ko‘p uchraydi. Ba’zan, yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni fosh qilish maqsadida tanqidiy, hajviy lavhalar yaratishga ham ehtiyoj seziladi. “Xalq so‘zi”ning 2005-yil 7-sentabr kungi sonida “Alpomish” uyqudan uyg‘onadimi?” nomli “tanqidiy lavha” chop etilgan. Unda Jarqo‘rg‘on tumanida faoliyat yuritadigan, don mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan

“Alpomish” O‘zbekiston – Amerika qo‘shma korxonasining kirdikorlari ochib tashlangan. “Korrespondensiya” janridan farqli o‘laroq, faoliyatida uzilish kuzatilgan korxona uxlab qolgan xalq qahramoni – Alpomishga mengzalgan. Shuningdek, boshqa badiiy vositalar ham qo‘llanilgan.

Lavhada nafaqat axborot beriladi, tahlilga tortiladi, balki hayot yorqin bo‘yoqlarda tasvirlanib, voqelikning o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanishiga erishiladi. Oqibatda, obraz va obrazlilikdan foydalanish zarurati paydo bo‘ladi.

Biroq “lavha”da voqea-hodisa yoxud inson faoliyatiga doir bo‘lgan barcha tafsilotlar bayon etilmaydi. Aksincha, uning ma’lum bir qismi (parchasi) yoritiladi, xolos. Masalan, biron-bir olim, muallim, sportchi yoki san’atkorning ish faoliyati, quchgan zafarlarigina “lavha”da aks ettirilishi mumkin.

Jurnalistika sohasida gazeta va jurnal lavhasidan tashqari, radiolavha, televavha ham mavjud. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari televideniye hamda radiokanalning talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”ning 2005-yil 9-sentabr sonida chop etilgan “Eski Jo’vadagi mo’jizalar” gazeta lavhasiga misol bo‘la oladi. Unda Rustam Musurmon keyingi vaqtlarda Eski Jo’va mavzesida bo‘layotgan o‘zgarishlar, bunyodkorlik ishlari

haqida ma’lumot beradi. Yangi barpo etilgan Bolalar ijodiyoti uyi va boshqa inshootlarning me’moriy ko‘rinishlarini zavq bilan tasvirlaydi. Olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida birmabir to‘xtalib o‘tadi. Lavha obrazli ifodalarga boyligi, ko‘tarinki ruhda yozilgani uchun mushtariyga ma’qul tushadi.

Uning ilmiy, adabiy-badiiy, she’riy ko‘rinishlari ham mavjud.

Qoraqalpog‘ davlat universiteti magistranti Sveta Shamuratova tomonidan olib borilgan izlanishda (“Publitsistik janrlar tili va uslubi” // “Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlari jurnali”, 2025-yil 1-son) “lavha” o‘zbekistonlik va qoraqalpog‘istonlik olimlar kam tadqiq etgan jurnalistik janrlardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida maqol, ibora va boshqa badiiy vositalardan foydalanilgani bois, “lavha”ning tili va uslubi badiiy asarlarnikiga yaqinligi ham aytib o‘tiladi.

“Lavha” – hayotning turli jabhalarini yoritish imkonini beruvchi, boshqa badiiy publitsistik janrlar qatori insonning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali axborot tashuvchi janr. Jurnalistika fakultetlari talabalari uchun chiqarilayotgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarida “lavha”ga o‘rin ajratilishi joiz, deb o‘ylayman.

Ulug‘bek SHAROBIDDINOV,
O‘zJOKU talabasi

Qatra

Opam kasallanib, tuzalishi biroz qiyin kechdi. Kichik o‘g‘li chidolmay Toshkentga olib keldi. Ko‘rgani bordim. Kayfiyatsiz. Meni ko‘rib, “kel”, dedi-yu, bolishdan boshini ko‘targisi ham kelmadi. Yoniga o‘tirdim. Ketma-ket telefon qo‘ng‘iroqlari bo‘lyapti, qishloqdagi o‘g‘illari, qizlari, kelin-kepchik degandek. Hech qaysiga javob bermadi, “nega?” degan savolimga hafsalasiz qo‘l siltab qo‘yaqoldi.

XONZODA

Chalg‘itish uchun u yoq bu yoqdan gurung bera boshladim. Xasta odamga gurung yoqarmidi. Shu payt yana telefon qo‘ng‘irog‘i chalinib, ekranda Xonzoda degan ism paydo bo‘ldi.

– Xonzoda qilyapti, – dedim bu safar ham qo‘ng‘iroq javobsiz qolishiga ishonch bilan.

Opam shu zahoti boshini ko‘tarib, shosha-pisha telefonni qo‘liga oldi. Chiroyi ochilib ketdi. Kasal odamga ham o‘xshamay qoldi. Ovozini balandlatib gaplasha boshladi. Xona qizaloqning sog‘inch to‘la qo‘ng‘iroqdek ovozigga to‘ldi.

– Momojon, qachon kelasiz?
– Do‘xtir ruxsat bersa, boraman.
– Do‘xtirga ayting, nevaram sog‘ingan, deng.

– Aytdim.
– Momojon, siz menga uyda hech kim yo‘qligida qo‘ng‘iroq qiling, o‘zingizga aytadigan gapim bor.
– Mayli, qizim, mayli.
Yarim soat yoki bir soatki suhbatimiz Xonzoda bo‘ldi. Bu gal opamning o‘zi telefon qildi.



O‘rigidan mag‘zi shirin

“SYURPRIZ”

– Momojon, sizga “syurprizim” bor.
– Nima ekan?
– Kelganingizda ko‘rasiz, sovutkichning ichiga yashirib qo‘yganman.
– Xonzodam, mehribonginam...
– Sizni har kuni duo qilyapman, tezroq tuzalib keting, deb.

Yana Xonzoda...
– Qiziq, “syurpriz” nima bo‘lishi mumkin? – so‘rayman opamdan.
– Nima bo‘lardi, oldin mazasini bilish uchun bir uchi tishlangan pirojniy yoki shokolad-da, – dedi opam kulib.

DUO

Hayal o‘tmay yana Xonzoda qo‘ng‘iroq qildi.

– Momojon, maktabga ketyapman, sizni ko‘p-ko‘p duo qildim, maktabdan kelganimda uyda bo‘ling, deb...

Narigi tomondan o‘g‘il bolaning “men ham, men ham aytay”, deb opasining qo‘lidagi telefonga talashayotgani eshitildi. “Ma, ushla, aytsang ayt”, deb jerkinib yon berdi opa Xonzoda. Kichkintoy ham boshladi salom-aliksiz:

– Momo, men ham sizni duo qildim.
– Nima deb duo qilding, Jahonjon?
– Momomning pensiyasi ko‘paysin, deb...
Ko‘pdan shunchalik miriqib kulmagan edim. Duoning ham turi ko‘p ekan-da. Obbo, duogo‘y Jahon-ey.

Bu bolalar momosini tuzalmaganiga qo‘yishmaydi.

Aytgancha, “Syurpriz” rostdan ham bir uchi salgina tishlangan (mazasini bilish uchun tishlangan, og‘ir xayollarga borib yurmang tag‘in) shokolad va pirojniy ekan. Dadasining aytishicha, har kuni joyida turgan-turmaganligini bir necha marta tekshirib turibdi.

Inobat NODIRSHOH

“JADIDLARNING MA’NAVIY

QAHRAMONLIGI”



Jadidchilik Turkiston milliy-ozodlik harakatining mafkurasi, o'lka xalqlarining mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllanib, jadidlar millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurishni maqsad qilgan edi. Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jadidlar, xususan milliy-ozodlik harakatining buyuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning g'oyalari asosida milliy o'zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish orqali fuqarolar, qolaversa harbiy xizmatchilarda milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishni davr talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi asosida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyati olimlar, yozuvchi va professional ijodkorlar, jurnalistlar, harbiy xizmatchilar, respublika oliy va oliy harbiy ta'lim muassasalari mutaxassislari, tadqiqotchilar hamda nashrlarimiz o'quvchilari o'rtasida ma'rifatparvar bobolarimizning hurriyatga erishish yo'lidagi ibratli hayotini targ'ib qilish, g'oyalari harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, yoshlar ongiga singdirish, adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ularda milliy ruh, g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish, yangi marralar sari undash maqsadida "Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" deb nomlangan tanlovni e'lon qiladi.

TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlar – maqola, ocherk, esse va boshqa badiiy ijod namunalari 2025-yilning 10-apreldan 2025-yilning 10-avgustigacha (*Word shaklida, 14 shriftida, kirill yoki lotin alifbosida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyatiga yuborilishi lozim.

MANZIL:

100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy; elektron manzil: @vatanparvargazetasi_bot yoki (90) 968-62-08 telegram orqali.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
- muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
- muallifning xizmat (*ish*) joyi.

Murojaat uchun telefonlar:

(55) 511-25-91; (55) 511-25-82.

Eng sara ijodiy ishlar "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- 1-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom;
- 2-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom;
- 3-o'rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom.

Rag'batlantiruvchi mukofot:

- 3 ta – bazaviy hisoblash miqdorining 8 (*sakkiz*) barobari, diplom.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi, mudofaa.uz sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

G'olib va sovrindorlarga mukofotlar 2025-yilning 30-avgustiga qadar tantanali ravishda topshiriladi.

Yangi loyihalar

PROFESSIONAL VA KREATIV YONDASHUV

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azm-u shijoatli yoshlarni intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan professional va kreativ loyihalar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Loyihalar orqali yoshlarni xorijiy tillarni malakali ustozlar bilan tizimli va sodda usullarda o'rganish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari sifatli formatda o'qish va tinglash, zamonaviy kasb va fanlarda onlayn mashg'ulotlar, tez va oson shaxmat strategiyalarini o'rganish imkoniyatlarini yaratib berish rejalashtirilgan.

Yoshlar ongiga ma'naviy yetuk va ilmiy salohiyatli shaxs sifatida kamol topish tuyg'ularini singdirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yaratilgan "Ibrat farzandlari", "Mutolaa", "Ustoz AL" va "Uz chess" kabi istiqbolli loyihalar harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda farzandlari uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

TAHRIRIYAT

Shaxmatni bepul o'rganing

Uz Chess

Professionalardan shaxmat darslari

Ilovani hoziroq yuklab oling

@uzchess
www.uzchess.uz

Download on the App Store
GET IT ON Google Play

Ilm Imkoniyat Kelajak

QIZLAR AKADEMIYASI

Oila va bola psixologiyasi, oila huquqi, pazandachilik, to'quvchilik va raqs

Ilovani hoziroq yuklab oling

@qizlarakademiyasi
www.qizlarakademiyasi.uz

Download on the App Store
GET IT ON Google Play

Bepul til o'rganish uchun

IBRAT FARZANDLARI

23 ta xorijiy tillarni o'zbek tilida kreativ o'rganishga mo'ljallangan dastur

Ilovani hoziroq yuklab oling

@ibratfarzandlari
www.ibratfarzandlari.uz

Download on the App Store
GET IT ON Google Play

O'zingizni biz bilan kashf qiling

USTOZ AI

Mobilografiya, targeting, dasturlash, saytlar yaratish, arxitektura, matematika va biologiya

Ilovani hoziroq yuklab oling

@ustozai
www.ustozai.uz

Download on the App Store
GET IT ON Google Play

Mutolaa vaqti keldi

mutolaa

Bestseller, badiiy, ilmiy, ommabop audio va elektron kitoblar

Ilovani hoziroq yuklab oling

@mutolaaxona
www.mutolaa.com

Download on the App Store
GET IT ON Google Play

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliq'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5945
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 269 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya